10. Эшдавлатова Г.Э. / DEVELOPMENT OF THE COMPOSITION OF THICKENING COMPOSITIONS FOR PADDING FABRICS BASED ON MIXED FIBERS / Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. Volume 1, Issue 9, December, 2023. ISSN (E): 2938-3811. 48-52 с.

11. SNPA-DEA/ The Palph M. Parsons Co» Hydrocarbon processing, 1979, vol. 58,4, p.120.

12. Эшдавлатова Г.Э. / THE EFFECT OF CONCENTRATION OF POLYMERS/ Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. Volume 1, Issue 9, December, 2023. ISSN (E): 2938-3811. 11-13 с.

13. Эшдавлатова Г.Э. / STUDY OF THICKENING POLYMER COMPOSITIONS FOR FABRIC STUFFING / Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. Volume 1, Issue 4, December, 2023. <https://westerneuropeanstudies.com/index.php/1>. 96-100 с.

14. Эшдавлатова Г.Э. Изучение реологических свойств загущающих композиций при набивки ткани. Eurasian journal of academic research. Innovative Academy Research Support Center. UIF = 8.1 | SJIF = 5.685. 147-152 с.

15. Эшдавлатова Г.Э. / Разработка эффективного состава загустителей / Journal of Science, Research and Teaching. Vol. 2, No. 12, 2023 ISSN:2181-4406. 46-49 с.
16. Эшдавлатова Г.Э. / Испытания Разработанных Полимерных Композитов / Progress Annals: Journal of Progressive Research. Volume 1, Issue 7, November, 2023. ISSN (E): 2810-6466. Website: 14-16.
17. Эшдавлатова Г.Э. / Разработка Загустителей На Основе Окисленного Крахмала / Open Academia: Journal of Scholarly Research. Volume 1, Issue 8, November, 2023. ISSN (E): 2810-6377. Website: 48-52 с.
18. Эшдавлатова Г.Э. / ПОЛУЧЕНИЕ ПЕЧАТНОЙ КРАСКИ ДЛЯ НАБИВКИ ХЛОПКОВЫХ И НИТРОННЫХ ТКАНИ / Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 VOLUME 2 | ISSUE 17 | 2023. Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.938 / 30-35 с.
19. Эшдавлатова Г.Э., Амонов М.Р. (2021). Изучение реологических свойств загущающих композиций для печатания ткани на основе смесовых волокон. *Universium: технические науки*. № 11 (89). Часть 2. –С.19-23.
20. Эшдавлатова Г.Э., Амонов М.Р.(2022). Реологические свойства загущающей полимерной композиции и печатных красок на их основе. *Развитие науки и технологий*: Научно – технический журнал. № 3. –С. 27-31.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12542354>

БИР ЙИЛДА ИККИ ҲОСИЛ ОЛИШ АСОСИДА КАРТОШКАНИНГ КЎПАЙИШ КОЭФФИЦИЕНТИНИ ОШИРИШ

Хуршидова Маржона Аброр кизи

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар
университети Агротехнология факультети талабаси

mxurshidova@gmail.com

Аннотация. Картошка кўпайиш коэффициенти паст экинлар қаторига мансуб. Учки меристема усулида соғломлаштирилган туганакларни жадал кўпайтириши уларнинг юқори потенциал имкониятларидан фойдаланиши имкониятини беради. Ўзбекистон шароитида картошкадан бир йилда икки марта ҳосил олиши имконияти бор. Бу усулдан фойдаланиши картошка уруғчилигида соғлом дастлабки материални жадал кўпайтиришига ёрдам беради. Тадқиқотларнинг кўрсатишича, бир йилда икки ҳосил олиши навларнинг туганакларни кўпайиши коэффициенти бир йилда 5,5 – 7,6 дона ўрнига 52 – 74 донагача ошириши имкониятини яратди. Энг юқори кўрсаткич Қувонч-1656м навида (74 дона) олинди, паст кўрсаткич эса Ҳамкор-1150 (52 дона) навида кузатилди. Бир йилда икки ҳосил олиши усулининг қўлланилиши натижасида дастлабки соғлом туганакдан икки йилда навлар бўйича 1100-2300 та уруғлик туганак олиши имконияти яратилди. Бу кўрсаткич назорат вариантыда 43-64 донани ташиқил этди.

Калим сўзлар: картошка, уруғлик материал, туганаклар, кўпайиши коэффициенти, икки ҳосил ва бошқ.

Abstract. The potato multiplication coefficient belongs to the category of low indicators. Rapid multiplication of tubers that have been rejuvenated in the apical meristem provides an opportunity to exploit their high potential capabilities. In Uzbekistan, there is a possibility of obtaining two crops of potatoes in one year. The use of this method helps in rapidly increasing the seed material in potato farming. According to research, the use of the method has created the possibility of increasing the multiplication coefficient of tubers of new varieties instead of 5.5 and 7.6 pieces to 52 - 72 pieces in one year. The highest indicator was achieved with the Quvonch-1656 variety (74 pieces), while the lowest indicator was recorded with the Hamkor-1150 variety (52 pieces). As a result of the application of the method of obtaining two crops in one year, a potential was created to obtain 1100-2300 seed tubers per hectare within two years from one seed tuber. This indicator formed a range of 43-64 in the control variant.

Key words: potato, seed material, nodes, coefficient of increase, double crop, and others.

КИРИШ /INTRODUCTION).

Кейинги пайтларда дунёнинг кўпгина давлатларида картошка уруғчилиги вируссиз асосда ташкил этмоқда. Республикамиз шароитида ҳам соғломлаштирилган ўсимликлардан олинган туганаклардан етиштирилган элита ҳосилдорлиги одатдаги усулда олинган уруғликка нисбатан 25-30% юқори ҳосил бериши мумкинлиги исботланган. Шунини таъкидлаш керакки, учки меристема усулида соғломлаштириш махсус лабораторияларда олингани сабабли бундай туганакларнинг таннархи қимматга тушади.

Соғлом дастлабки материалнинг юқори потенциал имкониятларидан фойдаланиш имконияти уни қайтадан вируслар билан зарарланишини олдини олишга қаратилган ташкилий, профилактик, ҳимоя ва агротехник тадбирларни кўллаб кўпайтирилишига боғлиқ.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ /METHODS).

Қишлоқ хўжалик экинлари орасида картошка кўпайиш коэффиценти кам ўсимликлар қаторига киради (2). Чунки ҳар бир туганакдан ўртача товар майдонлардан 4-5 та (1), уруғлик пайкаларида эса 7-9 дона туганак ҳосили олинади (4). Бундай паст кўрсаткич картошка уруғчилигида, айниқса дастлабки туганаклари учки меристема усулида соғломлаштирилган туганакларни жадал кўпайтириш ишларини қийинлаштиради (5). Чунки дастлабки танлаб олинган соғлом ўсимликлар туганаклари кўп марта репродукцияланиши натижасида уларнинг қайтадан вирус касалликлари билан зарарланиши даражаси ошиб бориши ҳисобига уруғлик сифатларининг пасайиши кузатилади (8). Шунинг учун ҳам картошканинг вируссиз асосдаги уруғчилигида соғлом дастлабки материални кўпайиш коэффицентининг оширилиши улардан тезроқ элита етиштириш жараёнининг қисқаришига (7), бу эса, ўз навбатида ўсимликларнинг юқори потенциал қобилятидан самарали фойдаланиш имкониятини яратади (2). Бундан ташқари, янги ва камёб навларни жадал кўпайтиришда туганакларнинг кўпайиш коэффицентини оширишнинг ахамияти катта ҳисобланади.

Картошка туганакларининг кўпайиш коэффицентини ошириш учун уларни экиш олдида кесиш, уруғлик учун майда туганаклардан ҳам фойдаланиш, катта экиш схемасида экиш ва бошқа усуллардан фойдаланилади.

Ўзбекистон тупроқ-иқлим шароитида эса картошка тезпишар навларидан бир йилда икки ҳосил олиш имконияти мавжуд. Шунинг учун вируссиз асосда ташкил этилган картошка бирламчи уруғчилигида бир йилда икки ҳосил олиш орқали учки меристема усулида соғломлаштирилган туганакларнинг кўпайиш коэффицентига таъсирини ўрганиш соҳанинг долзарб масалаларидан бири бўлиб ҳисобланади.

МАТЕРИАЛ ВА МЕТОДЛАР.

Дала тажрибалари 2022-2023йилларда сабзавот, полиз экинлари ва картошкачилик илмий-тадқиқот институтининг Самарқанд тажриба станцияси шароитида ўтказилди. Тажрибаларимиз объекти бўлиб Давлат реестрига киритилган Қувонч 1656 м, Бахро – 30, Ҳамкор – 1150, Акраб ва Умид навлари хизмат қилди.

Тажрибаларимиз объекти сифатида юқорида номлари келтирилган навларнинг вазни 80 граммдан йирик бўлган бутун туганаклари хизмат қилди. Хар бир навнинг туганакларидан ўсимталар чиқиши, улардан ўсимта бўлақларининг чиқими, ўсимталарнинг илдиз олиши ва интенсивлиги, улардан тайёр кўчатларчиқиши, уларнинг дала тутувчанлиги, хар бир ўсимликдан олинган туганаклар сони ва массаси ва йил охирида хар бир туганакнинг кўпайиш коэффиценти аниқланди. Тадқиқотларда олинган натижалар жадвалда келтирилган.

НАТИЖАЛАР (RESULTS).

Биз картошканинг бирламчи уруғчилигида дастлабки соғлом материални жадал кўпайтириш усулларини ишлаб чиқиш мақсадида бир йилда икки ҳосил олишнинг соғлом туганакларнинг кўпайтириш коэффицентига таъсирини ўрганиш борасида дала тажрибаларини ўтказдик.

Тадқиқотларимизда ўрганилган вариантда ўсимликлардан олинган ҳамма туганаклардан уруғлик сифатида фойдаланилди. Боҳорда экилган ўсимликлардан олинган ҳамма туганаклар ўстирувчи стимуляторлар ёрдамида ишланиб қайта экилди. Назорат вариантыда эса фақат уруғлик фракциядаги (вазни 30-80 грамм) туганаклар фақат ёзги муддатда экилди. Натижалар жадвалда келтирилган.

Жадвал

Бир йилда икки ҳосил олишнинг картошка хар хил навларининг кўпайиш коэффицентига таъсири.

№	Навлар номи	Ўрганилган вариант			Назорат		
		1 йил	2 йил	3йил	1 йил	2 йил	3 йил
1	Қувонч-1656м	74	2300	64700	7,6	64,3	384
2	Бахро-30	63	1680	56200	6,4	55	294
3	Ҳамкор-1150	52	1100	39300	5,5	43,6	178
4	Сантэ	60	14300	50100	6,1	50	265

МУҲОКАМА (DISCUSSION).

Тадқиқотларнинг кўрсатишича, бир йилда икки ҳосил олиш навларнинг туганакларни кўпайиш коэффицентини йил давомида 5,5 – 7,6 дона ўрнига 52 – 74 донагача ошириш имкониятини яратди. Энг юқори кўрсаткич Қувонч-1656м навида (74 дона) олинди, паст кўрсаткич эса Ҳамкор-1150 (52 дона) навида кузатилди.

Бир йилда икки ҳосил олиш усулининг қўлланилиши натижасида дастлабки соғлом туганакдан икки йилда навлар бўйича 1100-2300 та уруғлик туганак олиш имконияти яратилди. Бу кўрсаткич назорат вариантыда 43-64 донани ташкил этди.

Жадал кўпайтиришнинг бу усулининг қўлланилиши билан дастлабки туганакдан уч йил давомида 64700 тага уруғлик туганак етиштирилди. Назорат вариантыда бу кўрсаткич навлар бўйича 178-385 донани ташкил қилди.

Шуни таъкидлаш керакки, бир йилда икки ҳосил олиш асосида туганакларни жадал кўпайтириш усулининг самарадорлиги нав хусусиятига боғлиқ эканлиги аниқланди. Масалан, йирик туганакли Бахро-30 ва Ҳамкор-1150 навларида бу усулнинг самарадорлиги нисбатан пастроқ бўлиб, Қувонч-1656 м ва Сантэ навларида бир йилда икки ҳосил олиш соғлом уруғлик туганаклари жадал кўпайтиришда самарали усул бўлиб хизмат қилиши мумкин. Шунинг учун картошканинг вируссиз асосдаги уруғчилигида соғлом дастлабки материани жадал кўпайтириш учун бир йилда икки ҳосил олиш усулидан фойдаланиш тавсия этилади.

Бизнинг республикамиз шароитида шундай самарали усуллардан бири тезпишар картошка навларидан бир йилда икки ҳосил олишдир. Шунинг учун ҳам Ўзбекистон шароитида картошка селекциясининг асосий йўналишларидан бири сифатида навларни баҳолаш критерийси сифатида уларнинг бир йилда икки ҳосил олишга яроқлилиги ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ (REFERENCES).

1. Eshonkulov B. Ergashev I. Obloqulov F. (2016). Potato production from True Potato Seed. *Journal of European Applied Sciences* 4, ISSN 2183-2195.
2. Eshonqulov B.M., Ergashev I.T. and Normurodov D.S. (2015). The effective method of potato cultivation. *Journal African Journal of Plant Science*, 10, 27-30.
3. Ergashev I.T., Begimqulov.I.B. Razzokov J. Oblakulov F. (2022). Scaintific hypotesis “Variety and population in agrobiocenosis of potatoes” *Journal International Journal of Psychosocial Rehabilitation*. ISSN:1475-7192. Page No. 4638-4641 <https://www.psychosocial.com/article/PR260452/14754/>
4. Ergashev I.T. Results of evaluation of new potato varieties (2022). *Journal Web of scientist International Scaintific Research Journal*. ISSN 2776-0979. 3. 933-940. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/1175>
5. Эргашев И.Т., Абдиназаров С., Қодиров И. (2022). Экиш схемасининг уруғлик картошканинг вируслар билан зарарланишига таъсири. Theoretical Principles of innovative Devolapment of the Agrocultural Sector in Uzbekistan. SB TSAU Conference. Google Scholar indexed. www.samaquni.uz . Samarqand. 350-353.
6. Ergashev I. T., OblokulovF., Saidmurodova Z., BegimkulovI., Ergashev U. (2021). An Important Faktor Determining The Quality Of Seed Potatoes. *Journal International Journal of Aquatic Science* ISSN: 2008-8019 Vol 12, Issue 03, 2021. P.6-8. http://www.journal-aquaticscience.com/article_131893.html.
7. Ibragim Ergashev. Laws of distribution and development of potato viruses and their insects in Uzbekistan (2021). *Journal European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)* Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No. 11, October 2021, ISSN: 2660-5643
8. Ergashev I.T., Normurodov D.S., Khurshidova M., Ergashev U.I. (2023). EFFECT OF VIRUSES ON POTATO PRODUCTIVITY. *Journal International journal of biological engineering and agriculture*. Vol. No. 3. ISSN : 2833-5376. <http://inter-publishing.com/index.php/IJBEA/article/view/1262>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12542394>

XAVFSIZ FILTRLASH VOSITALARINI AYLANIB O‘TISH VA BLOKLANGAN SAYTLARGA RUXSATSIZ KIRISH YO‘LLARI TAHLILI

Jumayev Sodiqjon Nuraliyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Surxondaryo, O‘zbekiston

jumayev.sodiq9091@mail.ru

***Anotatsiya.** Ushbu maqolada bloklangan saytlarga kirish usullari, yo‘llari va vositalari shuningdek, anonimlikni ta‘minlash maqsadida qaysi vositadan foydalanish afzalligi haqida tahlililiy ma‘lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** filtrlash, bloklangan sayt, anonimlik, ruxsatsiz kirish.*

***Аннотация.** В данной статье представлена аналитическая информация о способах, пути и средствах доступа к заблокированным сайтам, а также о том, какой инструмент лучше всего использовать для обеспечения анонимности.*

***Ключевые слова:** фильтрация, заблокированный сайт, анонимность, несанкционированный доступ.*

***Annotation.** In this paper is given analytical information about the methods, ways and tools of accessing blocked sites, as well as which tool is best to use to ensure anonymity.*

***Keywords:** filtering, blocked site, anonymity, unauthorized access.*

KIRISH

Internetning shiddat bilan rivojlanishi natijasida dunyoda axborotni tarqatish va undan foydalanishga talab ortib ketdi. Internetga bo‘lgan qiziqish va u orqali amalga oshiriladigan biznesning kengayishi Internet foydalanuvchilari uchun arzon va qulay

kommunikatsiya tarmog'ining hosil bo'lishiga olib keldi. Korxonalar Internet kanallaridan o'zining tijorat va boshqaruv axborotlarini uzatish va qabul qilish imkoniyatlariga ega bo'ldi.

Bundan tashqari, internet tarmog'ining rivojlanishi natijasida turli insonlar ma'naviyati va madaniyatiga zid, yosh avlod tarbiyasini butunlay o'zgartirib yuboradigan axborotlar, xizmatlar va kompyuter o'yinlari kirib kelmoqda. Kompyuter va axborot texnologiyalarining yuqori darajada rivojlanishiga qaramay ushbu ma'lumotlarni kirib kelishini to'sish yoki taqiqlash imkonsizligicha qolmoqda. Chunki, har soniyada millionlab sahifalarda yangi axborotlar hosil bo'ladi. Ularni oldini olish uchun esa, ushbu maqsaddagi ma'lumotlar borligi aniqlansa, saytni to'liqligicha bloklash amalga oshirilmoqda.

Internet tarmog'ida axborot oqimining ortishi va uning salbiy ta'sirlarini kamaytirish maqsadida provayderlarda turli filtrlash vositalaridan foydalaniladi. 2018-yilda Xitoy Xalq Respublikasi hududida ko'plab xorijiy saytlarga ulanish Buyuk Xitoy tarmoqlararoekran tizimi yoki internetdagi kontentlarni filtrlovchi tizim — «Oltin qalqon» loyihasi bilan bloklangan edi¹. Uning asosiy sababi Xorijiy resurslarning "Aholi uchun halokatli" axborotlarning ehtimoliy tarqalishini oldini olish sifatida ko'rsatilgan. Axborotga bo'lgan ehtiyojning o'rnini qoplash uchun esa, Xitoy kompaniyalari ularning milliy namunalari yaratishgan.

ASOSIY QISM

F.M.Muxtarovning PHD dissertatsiyasida² davlatlararo munosabatlarda kritik axborot infratuzilmasida shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdidlarni hisoblash va kontentlarni filtrlash usullari va algoritmlari ishlab chiqilgan. Ular yordamida ayrim turdagi axborotlarni filtrlashga erishish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tomonidan "Telekommunikatsiya tizimining globallasuvi sharoitida bolalar axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ota-onalar uchun tavsiya" deb nomlangan qo'llanma³ ishlab chiqilgan va unda Internet - Xorijiy ommaviy axborot vositalarining bola shaxsini destruktiv manipulyatsiya qilishini oldini olish yuzasidan hamda internet kontentlarini texnik jihatdan filtrlash imkoniyati mavjud bo'lmagan yoki murakkablashgan hollarda tarbiyaviy usullar orqali farzandlarimizni ma'naviy immunitetini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

¹ <https://vc.ru/future/37403-za-stenoy-kak-kitayskiy-internet-razvivaetsya-posle-blokirovok-inostrannyh-servisov>.

² Muxtarov F.M. "Xavfsizlikni ta'minlash tizimi modellari va davlatlararo munosabatlar strategiyasini muvofiqlashtirish algoritmlari" falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.

³ <https://lib.jspi.uz>.

Bundan tashqari, “Kiberxavfsizlik markazi” DUK tomonidan 2016-yilda ishlab chiqilgan “Onlayn muhitda yoshlarni himoya qilish bo‘yicha qo‘llanma” bolalarni Internet tarmog‘idagi xavf-xatarlardan asrash va ularning axborot xavfsizligi me‘yorlariga rioya qilishlari bo‘yicha tavsiyalar bayon etilgan.

Yuqorida keltirilgan manbaalarga tayanib shuni aytish mumkinki, ma‘naviyat uchun xavfli bo‘lgan kontentlarni filtrlash maqsadida ishlab chiqilgan tavsiyaviy xarakterga ega qo‘llanmalar to‘laqonli himoyani ta‘minlay olmaydi. Buning uchun davlatning axborot xavfsizligini ta‘minlash borasidagi siyosati darajasidagi choralarni ko‘rish tavsiya etiladi.

Hozirgi kunda quyidagi texnik filtrlash usullari mavjud:

- IP manzili bo‘yicha blokirovkalash;
- DNS yozuvlarini buzish;
- URL orqali blokirovkalash;
- paketli filtrlash;
- HTTP proksi-server orqali filtrlash;
- tarmoqni uzib qo‘yish;
- qidiruv natijalarini filtrlash.

Keltirilganlarning barchasi statik ma‘lumotlarga tayanadi. Ya‘ni filtrlanishi lozim bo‘lgan saytning manzili yoki u haqidagi kalit so‘zlar kiritiladi, natijada ushbu so‘z yoki manzilli sayt bloklanadi. Ammo, niqoblangan yoki dinamik DNS nomidan foydalanadigan saytlar uchun ushbu harakatlar besamara bo‘lishi mumkin.

Kontentlarni filtrlash quyidagi darajalarda bo‘ladi:

- xalqaro shlyuz;
- internet-provayderda;
- internet sayt yoki tashkilot tarmog‘ida;
- shaxsiy kompyuterlarda.

Bundan tashqari, odatiy ko‘rinishga ega sayt yoki ijtimoiy tarmoqlarda davlat siyosatiga qarshi qaratilgan, diniy ekstremizm, terrorizm, narkotik moddalar iste‘moli, pornografik ruhdagi videokontentlarni ko‘plab uchratish mumkin. Mamlakatimizda mashxo‘r Instagram, Youtube, Telegram, Facebook va boshqa shu kabi ijtimoiy tarmoqlarda yuqorida keltirilgan mavzulardagi video kontentlar ko‘plab joylanmoqda. Ularning siyosatida kontentlarni filtrlash bo‘yicha qoidalar mavjud, ammo ular ham to‘laqonli natijani bermaydi. Bunga yaqqol misol sifatida yuqorida keltirilgan ijtimoiy tarmoqlardagi pornografik ko‘rinishdagi video kontentlarni keltirish mumkin. Ushbu tarmoqlarda ro‘yxatdan o‘tgan ixtiyoriy foydalanuvchi ushbu kontentlarni tomosha qilishi mumkin. Bu esa, yoshlarning ma‘naviyatiga va vaqtini turli samarasiz maqsadlarda o‘tkazishiga olib keladi.

Shunday bo'lsada, xorijiy saytlarda (bloklangan) nashr etilgan mamlakatimiz va uning mavqeyini tushirishga qaratilgan axborotlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadida ushbu saytlarga aylanib kirish yo'llaridan foydalaniladi.

Insoniyat har doim cheklangan narsalardan foydalanish, ko'rish va uni buzishga harakat qiladi. Bunga yaqqol misof sifatida O'zbekistonda "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun asosida Twitter, TikTok, Skype va Vkontakte platformalari faoliyatiga cheklov qo'yilgan edi¹. Foydalanuvchilar tomonidan ushbu ijtimoiy tarmoq va taqiqlangan saytlarga kirish uchun turli anonimayzer, proksi server kabi vositalar qo'llanilmoqdaki, natijada ushbu sahifalarga ulanish va undagi axborot va xizmatlardan foydalanish imkoniyati yuzaga kelmoqda.

Bloklangan saytlarga aylanib kirishning quyidagi yo'llari va vositalar mavjud:

VPN (Virtual Private Network) – virtual himoyalangan tarmoq.


Virtual tarmoqlarni qurish konsepsiyasi asosida yetarlicha oddiy g'oya yotadi: agal global tarmoqda axborot almashinuvchi ikkita kanal bo'lsa, bu kanallar orasida ochiq tarmoq orqali uzatilayotgan axborotning konfidensialligini ta'minlovchi virtual himoyalangan tunnel qurish zarur. Bu virtual tunneldan uzatiladigan ma'lumotlar ruxsati mavjud bo'lmagan shaxslar va tashqi kuzatuvchilardan himoyalangan.

Shunday qilib, VPN tunneli ochiq tarmoq orqali o'tkazilgan ulanish bo'lib, u orqali virtual tarmoqning kriptografik himoyalangan axborot paketlari uzatiladi. Axborotni VPN tunneli bo'yicha uzatilishi jarayonidagi himoyalash quyidagi vazifalarni bajarishga asoslangan:

- o'zaro aloqadagi taraflarni autentifikatsiyalash;
- uzatiluvchi ma'lumotlarni kriptografik berkitish (shifrlash);
- yetkaziladigan axborotning haqiqiyli va yaxlitligini tekshirish.

VPNning asosiy xususiyati shundan iboratki, u jo'natuvchi va qabul qiluvchining ma'lumotlari (IP manzillari)ni ham shifrlaydi. Shuning uchun so'rov jo'natuvchi va qabul qiluvchilar haqidagi ma'lumotlarni aniqlash murakkab.

Quyidagi rasmda shaxsiy kompyuter va veb saytni bog'lashda VPNdan foydalanish sxemasi keltirilgan.



1-rasm. VPN shlyuz ulanishi

¹ <https://kun.uz/uz/news/2021/07/07/>

VPN texnologiyasi nafaqat axborot himoyasida, balki uning qabul qiluvchi va jo‘natuvchi manzillarini shifrlash xususiyatidan taqiqlangan saytlarga kirish maqsadida ham foydalaniladi. Buning uchun, oddiy foydalanuvchi sifatida mobil qurilma yoki kompyuterga VPN dasturi o‘rnatiladi va taqiqlangan saytlarga kirish imkoniyati yuzaga keladi.

Saytlar odatda IP manzili yoki DNS nomi orqali cheklov o‘rnatiladi. VPN esa, yuqorida ta’kidlanganidek, saytning manziliga tegishli ma’lumotlarni shifrlaydi.

2-rasmda taklif etilayotgan VPN manzillar va uning ma’lumotlari keltirilgan. Agar bitta VPN IP manzili faol holatda bo‘lmasa boshqasini tanlash mumkin.

	Proxy	Port	Version	Speed	Country	Region	City	Distance	Email	UDP
✓	50.149.118.201	43078	Socks5	medium	United States	Washington	Redmond	near	No	No
✓	179.210.48.15	44430	Socks5	slow	Brazil	Rio de Janeiro	Rio De Janeiro	medium	Yes	No
✓	218.24.88.85	1080	Socks4	fast	China	Liaoning	Shenyang	medium	No	No
✓	74.51.153.215	45554	Socks5	slow	United States	California	San Bruno	near	No	No
✓	78.22.96.71	44816	Socks5	fast	Belgium	Oost-Vlaanderen	Merelbeke	medium	No	Yes
✓	75.127.28.212	45554	Socks5	medium	United States	Wyoming	Rozet	near	No	Yes
✓	75.109.215.177	45554	Socks5	fast	United States	Texas	College Station	near	No	Yes
✓	24.192.17.82	45554	Socks5	slow	United States	Michigan	Southgate	near	No	No
✓	92.220.244.154	64272	Socks5	medium	Norway	Vestfold	Sandefjord	medium	No	No
✓	87.92.149.75	45554	Socks5	slow	Finland	Western Finland	Naantali	medium	No	Yes

2-rasm. VPN uchun taklif etilgan manzillar va ularning xususiyatlari.



Hozirgi kunda Free VPN, Hola Unlimited Free VPN, Turbo VPN, ExpressVPN, Free VPN Tomato, NordVPN kabi dasturlar keng foydalanilmoqda. Ushbu dasturlardan cheklangan saytlarga kirish va konfidensiallikni ta’minlash maqsadida foydalanish mumkin. Shuningdek, ushbu dasturlarning brauzer kengaytmalari mavjud bo‘lib, uni ishga tushirish va o‘chirish bitta tugma orqali amalga oshiriladi.

ANONIMAYZERLAR.

Foydalanish va kirish cheklangan veb xizmatlar va saytlarga, ularning taqiqlarini chetlab kirishga imkon beradigan barcha vositalarni anonimayzerlar deb aytish mumkin. Shuningdek, mutaxassislar tomonidan Anonimayzer vasifasini bajaruvchi saytlar ham mavjud bo‘lib, ushbu saytlarga tashrif buyurganimizda taqiqlangan saytning manzilini yozish qismi mavjud va shu orqali taqiqlangan saytga kirishga erishiladi.

Misol sifatida Jahproxy¹ anonimayzerida provayder tomonidan foydalanilishi cheklangan veb sayt nomi kiritiladi va u taqiqlangan saytga anonim holatda kirishni ta’minlab beradi. Ya’ni anonimayzer taqiqlangan saytga O‘zbekiston hududidan emas, boshqa davlatdan kirilmoqda deb ko‘rsatadi. 3-rasmda provayderlar tomonidan cheklangan *ozodlik.org* saytiga tashrif bo‘lganini ko‘rish mumkin.

¹ <https://jahproxy.pro/>



3-rasm. Jahproxy yordamida cheklangan saytga kirish

VPN va anonimayzerlarning bloklangan saytlarga kirishda vazifasi bir xil bo'lsada, xususiyatlari turli. Quyidagi jadvalda uning ayrim xususiyatlari tahlili keltirilgan.

1-jadval. VPN VA ANONIMAYZER TAHLILI

Xususiyatlar	VPN	Anonimayzer
Internet trafigini tinglash va yozishdan himoyalangan	Yuqori	Past
Internet provayderni bloklash mumkin emas	+	-
O'yin va ilovalar bilan ishlashi	+	-
Turli qurilmalarni qo'llab-quvvatlaydi (telefon, router)	+	-
Deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olgan	+	-
Yuqori tezlik	+	-
Foydalanish faktini berkitish	+	-
Shaxsiy ma'lumotlarni berkitish	+	+
Saytlar uchun foydalanuvchi IP manzilini berkitish	+	+

Anonimayzerlar saytlarni tez va barcha funksional imkoniyatlari bilan birgalikda ochish va foydalanishga imkon beradi. Undan faqat yangilik saytlariga tashrif maqsadida foydalanish lozim. Autentifikatsiya (login, parol), kredit kartalari va boshqa shunga o'xshash bloklangan saytlarga bu usul orqali kirish tavsiya etilmaydi.

Proksi-server.

Uning asosiy maqsadi tashkilot yoki korporativ tarmoq foydalanuvchilarining yagona IP manzil orqali global tarmoqqa chiqishini ta'minlab beradi. Demak, taqiqlangan saytlarga mavjud IP manzil bilan emas, proksi-serverda ko'rsatilgan manzil orqali kiradi. Shuning uchun provayderda cheklangan manzillar (O'zbekiston yoki boshqa davlat) ro'yxatida foydalanuvchining manzili aniqlanmaydi.

Quyidagi jadvalda ayrim Proksi server IPlarini taqdim etuvchi va server sifatida faoliyat yurituvchi saytlarning tahlili keltirilgan.

2-jadval. Proksi server saytlarining tahlili

Xususiyatlari	Cameleo.ru	Dostyp.ru	HideMe.ru	NinjaClaok.com	VTunnel.com
Davlat	Rossiya	Rossiya	Rossiya	AQSh	AQSh
Ishlash tezligi	A'lo	A'lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarli
Sozlanmasi mavjudligi	-	-	+	+	+
Proksini tanlash imkoniyati	-	+/-	+	-	+
Reklama va boshqa bloklar	+	-	+	+	+
O'zining reklamasi	-	-	+	++	++
Flesh xotirani qo'llashi	+	+	+	Uzoq yuklaydi	+

Eng keng tarqalgan HTTP proksi server 3 ta darajada ishlaydi:

1-daraja. Yuqori darajali anonimlik.

2-daraja. Anonim holatda saytlardan foydalaniladi, ammo joriy IP manzilni aniqlash imkoniyati mavjud emas.

3-daraja. Shaffof proksi-server, joriy IP manzilni aniqlash imkoniyati mavjud.

Hozirgi kunda HTTPS va SOCKS proksilar keng tarqalgan.

Darknet.

Darknet (inglizcha DarkNet, “Yashirin tarmoq”, “Qorong‘u tarmoq”, “Soya tarmog‘i” kabi ma’nolarni anglatib, “Dark web” nomi bilan ham tanilgan) - yashirin tarmoq, faqat ishonchli va teng huquqli ishtirokchilar o‘rtasida nostandart protokol va portlardan foydalangan holda hosil qilinadigan tarmoq.

Anonim tarmoq - bu shifrlangan ma’lumotlarni uzatishni ta’minlaydigan bog‘lanmagan virtual tunnellar tizimi. Darknetning boshqa taqsimlangan nuqta-nuqta (P2P) tarmoqlaridan farqi shundaki, fayl almashish anonim tarzda amalga oshiriladi. Foydalanuvchilar tarmoqda yopiq IP manzil asosida hukumat aralashuvisiz muloqot qilishi mumkin. Shuning uchun ushbu tarmoq ko‘pincha turli yer osti va noqonuniy faoliyatda aloqa vositasi sifatida qabul qilinadi.

“Darknet” atamasi 1970-yillarda xavfsizlik maqsadlarida ARPANETdan ajratilgan tarmoqlarga nisbatan ishlatilgan, keyinchalik u Internetning alohida tarmog‘iga aylangan. Darknet ishtirokchilari ARPANETdan ma’lumot olishi mumkin,

ammo uning manzillari tarmoqlar ro'yxatida ko'rinmaydigan va tashqaridan kelgan so'rovlarga javob bermaydigan texnologiyalar asosida qurilgan.

Darknetdan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:

- Maxfiylikni ta'minlash va siyosiy repressiyalardan himoya qilish.
- Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar.
- Mualliflik huquqi bilan himoyalangan fayllarni tarqatish.
- Terrorizm.
- Kiberrazvedka.

Ko'pgina Darknet tarmoqlariga kirish uchun maxsus dasturlarni o'rnatish talab etiladi. Quyida ayrim mashxo'r Darknet tarmoqlari keltirilgan:


– Tor anonim tarmoqlar uchun eng mashxo'r dasturlardan biri bo'lib, u Darknetga kirish uchun ham qo'llaniladi.

- I2P.
- RetroShare.
- Freenet.
- GNUnet.

Oxford universiteti tadqiqotlariga ko'ra, Tor dasturidan eng ko'p foydalanadigan davlatlarga Italiya, Moldova, Isroil tegishli. Ularda o'rtacha bir kunda 100 mingta internet foydalanuvchidan 200 tadan ortig'i ushbu anonim tarmoqdan foydalanadi. Ispaniya, Fransiya, Niderlandiya, Eron va Suriya kabi davlatlarda nisbatan kamroq, ya'ni 100-200 oralig'ida.

Google keshi yordamida kirish.

Saytdagi ma'lumotlarni joriy holati bo'yicha ko'rish lozim hollarda saytning google qidiruv tizimi keshida saqlangan qismlarini ko'rish mumkin. Buning uchun quyidagi rasmda tasvirlangan amallarni bajarish lozim.



4-rasm. Google kesh orqali bloklangan sahifaning dastlabki oynasini ko'rish

Bloklangan saytga google orqali kirish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

IP manzillardan foydalanish.

Bloklangan saytga kirishning keyingi usuli sifatida URL (sayt nomi) manzil o'rniga uning IP-manzilidan foydalanishni keltirish mumkin. Ba'zan saytni blokirovka qilish sayt nomini qora ro'yxatga qo'shish orqali amalga oshiriladi. Bunday hollarda ushbu usul yordam beradi.

Bloklangan ozodlik.org saytining IP manzili 104.81.235.125 ko'rinishga ega.

Ushbu bloklangan saytning IP manzilini *ping ozodlik.org* buyrug'ini kiritish orqali oson aniqlash mumkin. Lekin ushbu yo'l doim ham samara bermasligi mumkin. Chunki, ko'pchilik blokatorlar IP manzilni ham o'z ichiga oladi.

Tarjimondan foydalanish.

Online tarjimon saytlari yordamida bloklangan sayt manzili kiritiladi va tarjima qilingan varianti orqali ushbu saytga kirish mumkin. *Google tarjimonning* tarjima variantidagi manzil ustiga sichqonchani chap tugmasini bosish orqali ushbu saytga kiriladi.

Yandex tarjimon saytida internet manzillarni tarjima qiladigan alohida funksiyasi mavjud. Uning yordamida sayt tarjimasini Yandex sahifasining o'zida ko'rish mumkin.

Shuningdek, bloklangan saytlarga kirishda Bing tarjimonining samaradorligi yuqori. U har qanday bloklangan saytni ochish imkoniyatiga ega.

DNS (Domain Name System) – Domen nomi tizimi.

DNS nafaqat taqiqlangan veb-saytlarga kirish imkonini beradi, balki internet tezligini ham oshiradi. Odatda, OpenDNS eng yaxshi DNS serverlardan. Shuningdek, GoogleDNSdan ham foydalanishi mumkin.

DNS shlyuz Internet-provaydning DNS-serverlarini chetlab o'tib, OpenDNS orqali Internetga kirish imkonini beradi.

Ushbu manzillar bloklangan saytlar ro'yxatiga kiritilishi mumkin. Shuning uchun, <https://use.opendns.com/> kabi saytlar orqali ixtiyoriy biridan foydalanish mumkin.

Internet arxividan foydalanish.

Bu usul qidiruv tizimi tomonidan sahifalarni keshlashiga o'xshaydi, lekin qidiruv tizimlaridan farqli o'laroq, Wayback Machine (Internet arxivi sayti) sahifalarni bir oy yoki bir necha yil oldingi holatidagidek saqlaydi. Misol sifatida, archive.org saytni keltirish mumkin. Unda nafaqat veb saytlar, balki, video, ovoz, TV, rasm va boshqa shu kabi ma'lumotlar arxivini kuzatish mumkin.

Wayback Machine statik turdagi sahifalarni ko‘rish uchun eng yaxshi vosita sanaladi. Umuman olganda, sayt qanchalik mashxo‘r bo‘lsa, ushbu saytning veb-arxivi shunchalik tez yangilanadi.


Quyidagi jadvalda VPN, Proksi server va Tor vositalarining tahlili keltirilgan bo‘lib, uning asosida maqsadga bog‘liq holda ulardan birini tanlash mumkin.

2-jadval. VPN, Proksi server va Tor vositalarining tahlili

	VPNnet	Oddiy VPN	Proksi server	Tor
Saytga anonim IP bilan kirish	+	+	+	+
Ixtiyoriy saytga tashrif	+	-	+	-
Ixtiyoriy sahifada ishlash	+	-	-	-
Provayderlar aniqlay omasligi	+	-	-	-
Statik IP	+	-	+	-
Trafikni shifrlash	+	+	-	+
Shifrlanganda tezlik	+	-	-	-
Sozlashda qo‘shimcha dastur talab etmaydi	+	-	+	-
Cheklanmagan qurilmalar soni	+	-	-	-
Qurilmalarning qo‘shimcha yuklanish olmasligi	+	-	+	+
Tekin	-	-	+	+
Log fayllar va boshqa izlar mavjud emas	-	-	+	+

VPNnet pullik ko‘rinishda xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan xizmat hisoblansada, u boshqa vositalarda mavjud bo‘lmagan xususiyatlarni ham o‘zida mujassam etganligi bilan farqlanadi.

Quyidagi rasmda VPN, Tor, Proksi server va Anonimayzerlarning o‘zaro tahliliy sxemasi keltirilgan bo‘lib, foydalanuvchi kompyuteri va bloklangan saytlarga kirishga imkon beruvchi vosita hamda vosita va sayt o‘rtasidagi aloqalar keltirilgan.



5-rasm. VPN, Tor, Proksi server va Anonimayzerlarning o'zaro tahlil sxemasi

Ushbu rasmdan ko'rinib turibdiki, bloklangan saytlarga kirishga imkon beruvchi barcha dasturlarning imkoniyatlari turli bo'lib, maqsadga bog'liq holda foydalaniladi.

VPN internet-trafikni shifrlaydi, odatda uni faqat bitta server orqali yo'naltiradi. Shuning uchun tezligi Tordan yuqori. Ulanish anonim emas, lekin VPN provayderi foydalanuvchi jurnallarini saqlamasa va ularni maxsus xizmatlarga o'tkazmasa, tarmoqdagi harakatlar maxfiy hisoblanadi.

Proksi server va foydalanuvchi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa hosil qiladi, ammo Proksi server va sayt o'rtasida qayta yo'naltirilgan (o'zgartirilgan) manzil orqali bog'lanadi.

Anonimayzer ulanishida esa, anonimayzer va foydalanuvchi o'rtasida javob hamda anonimayzer va sayt o'rtasida so'rov qayta yo'naltirilgan (o'zgartirilgan) manzil orqali bog'lanadi.

XULOSA

Keltirilgan usul va vositalar ichidan VPN va Torning imkoniyatlari keng. Ularning ishlash funksiyasi bir-biriga yaqin, agar ularni birgalikda qo'llansa quyidagicha natija beradi. Ushbu holatda ikki xil ulanish yuzaga kelishi mumkin:

Foydalanuvchi→*VPN*→*Tor*→*Internet* (Torni VPN orqali qo‘llash).

Ushbu to‘plamdan foydalanish uchun tanlangan VPN serveriga ulanib Tor brauzeri ishga tushiriladi. Shifrlangan VPN trafigi Tor tarmog‘iga yo‘naltiriladi va u yakuniy manzilga yetguncha Tor tugunlari bo‘ylab o‘tadi. End-to-end VPN shifrlash va Tor anonimligi xavfsiz aloqa uchun yaxshi juftlik.

Afzalliklari:

- Sozlash oson.
- Yuqori tezlik va barqaror ishlashini ta‘minlaydi.
- VPN provayderi kontent yoki trafik manbasini ko‘ra olmaydi, faqat Torga ulanish faktini ko‘radi.
- Internet provayderi Tordan foydalanilayotganini ko‘rmaydi, faqat VPN dan foydalanayotganini ko‘radi.
- Tor kirish tuguni haqiqiy IP manzilni emas, VPN IP manzilini ko‘radi.

Kamchiliklari:

- VPN provayderi hali ham haqiqiy IP manzilni ko‘rishi va bu ma‘lumotni razvedka idoralariga taqdim etishi mumkin.
- Agar shifrlanmagan trafik yuborilsa, zararli Tor chiqish tugunlariga qarshi himoyasiz bo‘ladi.
- Agar VPN to‘satdan o‘chib qolsa, provayder tarmoqdagi harakatlar haqida bilib oladi.

Foydalanuvchi→*Tor*→*VPN*→*Internet* (VPNni Tor orqali qo‘llash).

Ushbu zanjirdan foydalanish uchun avval Torga ulanib, keyin VPN ishga tushiriladi. Tor tugunlariga ulanilgandan so‘ng trafik shifrlanadi.

Afzalliklari:

- VPN provayderi haqiqiy IP manzilni ko‘ra olmaydi.
- Internet provayderi VPN dan foydalanilayotganlikni ko‘ra olmaydi.
- Anonim xaridlar uchun ulanish qulay.

Kamchiliklari:

- Tezligi juda past.
- Faqat Tor saytlariga kirish mumkin.
- Barcha VPN provayderlari bu to‘plamdan foydalanishga ruxsat bermaydi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, anonimlik uchun Tor brauzeri va maxfiylik uchun VPN dan foydalanish maqul degan xulosaga kelish mumkin. Chunki, Tor VPN ga qaraganda yuqori anonimlikni ta‘minlaydi. Ma‘lumotlar tasodifiy tugunlar zanjiri orqali o‘tadi. Ulanish anonim, lekin provayder Tordan foydalanayotganlikni ko‘rishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ijtimoiy tarmoqlar faoliyatiga chek qo‘yildi. Maqola. <https://kun.uz/uz/news/2021/07/07/>.
2. Xitoyda xorijiy xizmatlar bloklandi. Maqola. <https://vc.ru/future/37403-zastenoy-kak-kitayskiy-internet-razvivaetsya-posle-blokirovok-inostrannyh-servisov>.
3. Muxtarov F.M. “Xavfsizlikni ta’minlash tizimi modellari va davlatlararo munosabatlar strategiyasini muvofiqlashtirish algoritmlari” falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.
4. Bloklangan saytlarga aylanib o‘tish. Maqola. <https://lib.jspi.uz>.
5. Jahproxy proksi serveri. Maqola. <https://jahproxy.pro/>.
6. Bibhu Dash, Meraj Farheen Ansari, Pawankumar Sharma, Nikhitha Yathiraju. “Artificial Intelligence and Cybersecurity” 2021. Brussels.
7. Технологии информационного воздействия в социальных системах. Статья. www.eartist.narod.ru/text24/0028.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12542460>

STEAM – DASTURI VA UNING TA'LIMDAGI O'RNI

Komilova Nasiba Komil qizi

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabasi

Turayeva Nasiba Mirxamidovna

Ilmiy rahbar o'qituvchi

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

ANNOTATSIYA. STEAM dasturining ta'limdagi o'rnini va STEAM yondashuvining o'zlashtirishga ta'sirini o'rganish.

Kalit so'zlar: integratsiya, aql, bilim, ko'nikmalar, hayotiy ijodkorlik, moslashuvchanlik, g'oyalar

АННОТАЦИЯ. Изучение роли программы STEAM в образовании и влияния подхода STEAM на обучение.

Ключевые слова: интеграция, интеллект, знания, навыки, жизнь, творчество, гибкость, идеи.

ABSTRACT. Studying the role of STEAM program in education and the impact of STEAM approach on learning.

Keywords: integration, intelligence, knowledge, skills, life, creativity, flexibility, ideas.

Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifani bajarish, asosan pedagoglarga bog'liq bo'ladi. Shu maqsadda yoshlarni bilim olishga katta e'tibor qaratish lozim. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek yoshlarni erkin fikrlash va mustaqil hayotga yo'naltirishimiz kerak. Bu borada STEAM texnologiyasi bizga qo'l keladi.

STEAM-tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlarini uyg'unlikda o'qitish uslubidir. STEAM texnologiyasida nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligiga e'tibor qaratiladi. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Milliy dastur asosida ishlab chiqilgan 1-2 sinflarning ona tili va o'qish savodxonligi, tabiiy, matematika darsliklarida berilgan mavzularga STEAM texnologiyasi asosida yondashib, darslar tashkil etsa bo'ladi. Xususan, tabiiy fanlarda har bir mavzu nazariy ham amaliy tarzda berilgan [1, 45].

Jumladan, 2-sinf Tabiatshunoslik fanida Yer-sayyora mavzusi berilgan. Bu mavzuni o'rganishda o'quvchilar nazariy bilim bilan birga amaliy mashg'ulot ham o'tkazishadi. O'quvchilar yer shari, quyosh modelini yasashadi. Bu bilan ular yer shari quyosh atrofida aylanishini amaliy bilib oladilar shu bilan birga yer sharining global muammolarini bartaraf etish choralarini o'ylab topishadi. Bir shu mavzu asosida o'quvchilarni bilishga, fikrlashga, mustaqil ishlashga, ijodkorlikka undash mumkin.

Nafaqat darslarda, balki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham STEAM texnologiyasidan oqilona foydalanish kerak. Mashg'ulotlarni tashkil etishda kasb, hunar egalari taklif etilsa, ular o'z kasblari haqida nazariy bilim bilan birga amaliy ko'rsatib bersa, bu bolalarda yaxshi taassurot qoldiradi. Kelajakda kasb tanlashda, o'z yo'nalishini topib oladilar. Xulosa qilib aytganda, STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil fikrlashga, g'oyalarni ilgari surishga undaydi [2, 119].

STEAM – ta'limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo'lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyotiga va matematikaga integratsiya qilish yotadi.

Bunda muhandislik bilan bog'liq kasblarga bo'lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi. Ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash.

STEAM – ta'limida amaliy mashg'ulotlar yordamida bolalarga ilmiy-texnik bilimlaridan real hayotda foydalanish namoyon qilinadi. Har bir darsda o'quvchilar zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradi va modelni rivojlantiradi.

Tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni yechish STEAM – dasturi bolalar kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo'ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi [3, 98].

Masalan: bolalar tez yuradigan mashina modelini yig'adilar, so'ngra uni sinovdan o'tkazadilar. Birinchi sinovdan so'ng kutilgan natijaga erishilmasa uning sabablari haqida o'ylaydilar va topadilar. Balki, g'ildiraklarining kattaligi yoki aerodinamikasi to'g'ri kelmagandir. Har bir sinovdan so'ng ular kamchiliklarini bartaraf etib boradilar. O'z kuchiga ishonish hissining ortishi

Bolalar ko'prik qurish, mashina va samolyot modelini ishga tushirishda har safar maqsadga yaqinlasha boradilar. Har bir sinovdan so'ng modelni takomillashtiradilar. Oxirida barcha muammolarni o'z kuchlari bilan yengib maqsadiga erishadilar. Bu bolalar uchun ruhlanish, g'alaba va quvonch demakdir. Har bir g'alabadan so'ng ular o'z kuchlariga yanada ishonadilar.

Faol kommunikatsiya va komandada ishlash. STEAM – dasturi faol kommunikatsiya va komandada ishlash bilan farqlanadi. Muloqot davrida o'z fikrini bayon qilish va bahs-munozara olib borish uchun erkin muhit vujudga keltiriladi. Ular gapirishga va taqdimot qilishga o'rganadilar. Bolalar doimo o'qituvchi va sinfdoshlari bilan qatnashsalar, mashg'ulotni yaxshi eslab qoladilar.

Texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantiradi. STEAM – mashg'ulotlari juda dinamik va qiziqarli bo'lganidan bolalar mashg'ulot paytida zerikmaydilar va vaqtning qanday o'tganligini sezmay qoladilar.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, STEAM kundalik hayotning ilmiy tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta'limning integrativ yondashuvini taqazo etadi. Bunday yondashuvdan maqsad ta'lim berish orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda maktab, jamoatchilikni jalb qilib, ilmiy savodxonlik, raqobatbardoshlikni targ'ib qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘aniyeva, H. (2022). Increasing lesson efficiency for preschool and primary educational children using enter ached English methods and technologies. *Мактабгача таълим журнали, 1*(Preschool education journal). Retrieved from <https://journal.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/4867>
2. G‘aniyeva, H. (2021). Communicative language teaching approaches EFL context. *Мактабгача таълим журнали, 4*(Preschool education journal). Retrieved
3. Aliev A. (2021). About the features of the perspective of simple geometric shapes and problems in its training. Сборник науков их правъ SCIENTIA.
4. Jabbarov R., & RasulovM. (2021). Further formation of students’ creative abilities by drawing landscapes in painting. Збірник наукових праць ЛОГОС.
5. Avazbayev A., Jo‘rayevY., Tursunxo‘jayeva Z. (2021). Условия организации процесса технологического образования на основе кредитно-модульной системы. Общество и инновации, 2(4/S), 171–176.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12542498>

OCHIQ KANALLARDA SUV SARFINI O'LGHASH USULLARI

Gayipov Isa Kidirbay uli¹,
Qo'shmanov Ergash Murodboy o'gli²,
Amanbaev Nursultan Salamat o'g'li¹

¹Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi
Nukus konchilik instituti

²Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
i.gayipov@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola, ochiq kanallarda suv sarfini o'lchashning turli usullarini tahlil qiladi. Ochiq kanallarda suv oqimini o'lchash muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu suv resurslarini boshqarish, suv ta'minoti va toshqinlarni nazorat qilish kabi sohalarda qo'llaniladi. Maqolada, suv oqimini o'lchashning suv sarfini to'gridan-to'g'ri o'lchash va suv rejimining ma'lum elementlarini o'lchash va kuzatish asosida suv sarflarini aniqlash kabi usullari yoritilgan. Shuningdek ushbu maqolada ochiq kanallarda suv oqimini aniq va samarali o'lchash usullarini izlashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy va nazariy ma'lumotlarni taqdim etadi.

KALIT SO'ZLAR: *Ochiq kanal, suv sarfi, IoT va bulutli hisoblash, sun'iy intellekt, to'gridan-to'g'ri o'lchash.*

KIRISH. Ochiq kanallar, suv resurslarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning effektiv boshqarilishi suv iqtisodiyotining muhim qismi hisoblanadi. Ochiq kanallarda suv sarfini o'lchash esa bu resurslarni yaxshi boshqarish va taqsimlashda katta ahamiyatga ega.

MAQSAD. Bu ilmiy maqolaning asosiy maqsadi ochiq kanallarda suv sarfini o'lchashning nazariy va amaliy asoslarini tushuntirishdir. Bu mavzu, suvni samarali va effektiv boshqarishning asosiy qismlaridan birini tashkil etadi.

ASOSIY QISM. Ochiq kanallarda suv sarfini o'lchash, suv ta'minoti va suv resurslarini boshqarishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu usullar suvning miqdoriy va

sifatiy ko'rsatkichlarini aniqlashda, shuningdek, suv taqsimotini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi vaqtda dunyoning ko'plab qismlarida suv iste'moli real vaqt rejimida o'lchanmaydi yoki ko'rsatilmaydi, shuningdek, suv sizontilari o'z vaqtida va yuqori aniqlikda aniqlanmaydi, bu esa suvning keraksiz sarfini keltirib chiqaradi. Shu sababli, ushbu maqola IoT va bulutli hisoblashdan foydalangan holda uy uchun aqlli suv iste'moli o'lchash tizimini joriy etishni taqdim etadi. Tizim, suv iste'molini real vaqt rejimida ko'rishga imkon beradi va shuningdek, qoidalar, tarixiy kontekst va foydalanuvchi joylashuvi asosida ishlab chiqilgan sizonti aniqlash algoritmini taklif qiladi.

So'nggi o'n yilliklarda, suv resurslariga bo'lgan talab keskin oshib borishi bilan, ko'plab tadqiqotchilar suv iste'molini baholash uchun sun'iy intellektdan (SI) foydalanishga o'tganlar. Ushbu tadqiqot, suv iste'molini baholashda SI ning rolini innovatsiya, qo'llaniladigan sohalar, barqarorlik va mashinani o'rganish ilovalari nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi. Tadqiqot, kirish, chiqish o'zgaruvchilari va vaqt ufuqlari asosida mavjud modellarni, masalan, mustaqil va aralash modellarni tasniflaydi.

Suv sarfini o'lchashda qo'llaniladigan usullar quyidagi ikki guruhga ajratiladi:

➤ **Suv sarfini to'gridan-to'g'ri o'lchash:** Bu usul suv sarfini o'tkazgichning boshidan olingan suv miqdorini to'gridan to'g'ri o'lchashga asoslangan.

➤ **Suv rejimining ma'lum elementlarini o'lchash va kuzatish asosida suv sarflarini aniqlash:** Bu usul esa suv rejimining ma'lum elementlarini o'lchash va kuzatish orqali suv sarflarini aniqlashga yordam beradi.

NATIJARLAR. Suv sarfini to'gridan-to'g'ri o'lchash usuli, suv miqdorini o'tkazgichning boshidan olingan suv miqdorini to'gridan to'g'ri o'lchashga asoslanadi. Bu usul quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. **Suv o'tkazgichining boshidan suv miqdorini oling:** Suv o'tkazgichining boshida joylashgan suv miqdorini oling. Bu miqdor suv sarfini to'gridan-to'g'ri o'lchash uchun asos bo'ladi.

2. **Suv miqdorini to'gridan-to'g'ri o'lchash:** Suv miqdorini olingan suv miqdoriga qarab to'gridan-to'g'ri o'lchashni amalga oshiring. Bu usul quyidagi formulaga asoslanadi:

$$\text{Suv sarfi} = \text{Suv miqdori} - \text{Suv o'tkazgichining boshidagi suv miqdori}$$

Misol uchun, agar suv o'tkazgichining boshidagi suv miqdori 100 litr bo'lsa va suv miqdori 50 litr bo'lsa, suv sarfi:

$$\text{Suv sarfi} = 50 \text{ litr} - 100 \text{ litr} = -50 \text{ litr}$$

Bu esa suv sarfini to'gridan-to'g'ri o'lchash usulidir. Agar natijaviy miqdor manfiy bo'lsa, bu suv sarfini o'tkazgichga qaytarishni ko'rsatadi. Suv sarfini to'gridan-to'g'ri o'lchashda negativ miqdorlar mumkin, chunki suv o'tkazgichining boshidagi miqdor suv sarfini o'tkazgichga qaytariladi.

XULOSA. Suv miqdorini to'gridan-to'g'ri o'lchash suv sarfini o'lchashda muhim rol o'ynaydi va ularning qo'llanilishi kengayib bormoqda. Ular turli sanoat tarmoqlarida samarali va aniq o'lchovlar taqdim etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Djalilov A., Gayipov I., Razzaqov N. AUTOMATION OF THE DRIP IRRIGATION SYSTEM: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11279776> //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 314-317.

2. Jeyanthinath M., Gayipov I. DYE SENSITIZED SOLAR CELL RESEARCH ACTIVITIES IN MADURAI KAMARAJ UNIVERSITY: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11280775> //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 324-326.

3. uli Gayipov I. K., qizi Esemuratova G. M. OCHIQ KANALLARDA SUV OQIMI TEZLIGINI O'LCHASH //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – T. 3. – №. 4 SPECIAL. – C. 334-337.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12542544>

THE MAIN FEATURES OF INTELLIGENT TECHNOLOGIES IN DEVELOPING COUNTRY

Kadirov Ulug‘bek Ravshanovich

PhD, Assoc. Prof., Tashkent chemical-technological institute.

Ulugbekkadirov1@gmail.com

Asliddin Umaraliev Fakhritdin o‘g‘li

Tashkent chemical-technological institute.

Umaraliyev04@gmail.com

ABSTRACT

In the context of Global changes, the economy of our country today is the digital economy that motivates the development and the one that is associated with it how many effective technologies are rapidly entering our lives.

Key words: modern technologies, economy, IT developments, e-version developments, internet.

INTRODUCTION

hyperspaces”, Beshimov R.B., Mukhamadiev F.G., Mamadaliev N.K. “On density and locality density of the hyperspaces”, Beshimov R.B., Mukhamadiev F.G., Mamadaliev N.K. “Some properties of topological spaces related to the local density and the local weak density”, Beshimov R.B., Mukhamadiev F.G. “The local density of hyperspaces” mavzusidagi tezis va maqolalar tadqiqot ishini yozish davomida o‘rganish uchun manba bo‘lib xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. David Maya-Patricia Pellecer-Covarrubias-Roberto Pichardo-Mendoza, Cardinal functions of the hyperspace of convergent sequences, *Mathematica Slovaca* 68 (2018), No. 2, 431-450.
2. Энгелькинг Р. Общая топология. Москва: Мир, 1986. – 752 с. 12. Федорчук В.В., Филиппов В.В. Общая топология. Основные конструкции. Москва, 2014 г.
3. Александров П.С. Мемуар о компактных топологических пространствах М.: Наука.- 1971.- 144 с
4. Архангельский А.В. Основы общей топологии в задачах и упражнениях / А.В. Архангельский, В.И. Пономарев.— М.: Наука.— 1974.— 423 с.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12670985>

KORXONALARNING ISHCHI XODIMLARINING ISH HAQINI HISOBLASH USULLARI

Sadikov Zafarbek Adilbekovich

Andijon Iqtisodiyot va Qurilish Instituti "Buxgalteriya hisobi va bank ishi" kafedrası
katta o'qituvchisi

Yigitaliyev Asliddin

104-22 guruh Andijon iqtisodiyot va qurilish institute

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonadagi xodimlarni boshqarish va ish haqini hisoblash ishlari olib borilgan.

Tayanch so'zlar: Xodim, ish haqqi, ishchi, korxonona, tadbirkor.

Аннотация. В данной статье речь идет об управлении персоналом и расчете заработной платы на предприятии.

Ключевый слова: Сотрудник, зарплата, рабочий, предприятие, предприниматель.

Abstract. This article deals with employee management and salary calculation in the enterprise.

Key words: Employee, salary, worker, enterprise, entrepreneur.

Kirish

Xodimlarni boshqarishning murakkab mavzusini o'rganishni kishi adabiyotning mo'l-ko'lligidan boshlanishi mumkin. Yuzlab kitoblar va darsliklar, minglab

maqolalarda bunday hisoblash mavjud emas. Tekshirish, tekshirishni nima uchun aniqlaymiz.

Xodimlarni

Xodimlarga bo'lgan bahoni belgilash

kadrlar nazoratini boshqarish ishga qabul qilish

Bo'sh ish o'rinlari va boshqalar bilan ishlash

Xodimlarni moslashtirish

Motivatsiya

Sinflar uchun motivatsiya

KPI ning asosiy ko'rsatkichlari

Ish sharoitlari

Xodimlarni sertifikatlash va

Vakolatlarni sertifikatlash va amalga oshirish

Xodimlarga bo'lgan bahoni belgilash

Xodimlarni ko'rsatishni hal qilish kerak:

Kompaniyaning samarali resurslari uchun zarur bo'lgan inson resurslarini va ushbu resurslar va manba tarkibini ta'minlash uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish. Muayyan vaqt ichida ma'lum bir malakali holatning kerakli sonini va kerakli xizmatni talablarni kuzatish. Ish unga berilgan vaqtni to'ldiradi. ushbu qonun ikkita harakatga ega:

Rasmiylar bir-birlariga ish harakatlari.

Korxonaning tuzilishi, ish bilan band bo'lgan mansabdor shaxslarning soni (biznes bo'yicha menejerlar) yiliga 5-7% ga o'sib, talab ish hajmidagi har qanday o'zgarishlardan qat'i nazar (agar mavjud bo'lsa)). Bo'sh ish o'rinlari va boshqalar bilan ishlash Xodimlarni tuzatish usullari haqida ko'plab kitoblar va maqolalar yozilgan. O'zimizdan faqat tanlov ikki tomonlama jarayonni qo'shamiz. Sizni baholaysiz, balki sizni ham baholaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ish beruvchining yaxshi brendi yuzlab ish beruvchilarga yaxshi ishlaydi.

Xodimlar soni va ish haqi hisobi.

Ishlab chiqarish asosini ishchilar tashkil etadi.

Maydalash-saralash sexida quyidagi turdagi ishchilar mavjud:

1. Ishchilar soni -15 ta
2. Buldozer va ekskavatorchi-4 ta
3. Slesarlar -13 ta
4. Payvandchilar-5 ta
5. Elektriklar-4ta
6. Muxandis-texnik xodimlar-7ta
7. Kichik xodimlar-7ta

Jami: 57 kishi

Asosiy ishchilarning o'rtacha oylik ish haqi sexdagi ish xaqiga asoslanib olindi.

1. Ishchilar uchun.

$$\Phi_{ux}^0 = 18 \times 194550,0 = 3501360 \text{ so'm}$$

$$\Phi_{ux}^{iun} = 3501360 \times 12 = 42016320 \text{ so'm}$$

2. Elektriklar uchun.

$$\Phi_{ux}^0 = 4 \times 194430,0 = 377720 \text{ so'm}$$

$$\Phi_{ux}^{iun} = 377720 \times 12 = 4532640 \text{ so'm}$$

3. Payvandchilar uchun.

$$\Phi_{naü}^0 = 6 \times 194455,0 = 566730 \text{ so'm}$$

$$\Phi_{naü}^{iun} = 566730 \times 12 = 6800760 \text{ so'm}$$

4. Buldozer va ekskavatorchilar uchun.

$$\Phi_{öyl}^0 = 5 \times 194450,0 = 472250 \text{ so'm}$$

$$\Phi_{öyl}^{iun} = 472250 \times 12 = 5667000 \text{ so'm}$$

5. Slesarlar uchun.

$$\Phi_{cle}^0 = 10 \times 194440,0 = 944400 \text{ so'm}$$

$$\Phi_{cle}^{iun} = 944400 \times 12 = 11332800 \text{ so'm}$$

6. Muxandis texnik xodimlar.

$$\Phi_{mm.x}^0 = 6 \text{ ta } x \text{ } 194380,0 = 566280 \text{ so‘m}$$

$$\Phi_{mm.x}^{iul} = 566280 \times 12 = 6795360 \text{ so‘m}$$

7. Kichik xizmatchilar uchun.

$$\Phi_{kx}^0 = 8 \times 192915,0 = 743320 \text{ so‘m}$$

$$\Phi_{kx}^{iul} = 743320 \times 12 = 8919840 \text{ so‘m}$$

Umumiy yillik ish haqi fondi quyidagiga teng bo‘ladi:

$$\Phi_{ux}^0 = 139320000 \times 0,10(10\%) = 153252002 \text{ so‘m}$$

$$\Phi_{ux}^0 = 4 \times 194430,0 = 377720 \text{ so‘m}$$

$$\Phi_{ux}^{iul} = 20416320 + 4532640 + 6800760 + 5667000 + 6795360 + 8919840 =$$

90450608 so‘m

Xulosa

Korxonadagi muayyan ishchi kuchini hisoblashda xodimning ish vaqti va moliyaviy xizmat narxlarini qayta hisoblash usullarini o‘rgandik.

Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. Toshkent. “O‘zbekiston” 1995 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida” gi Qonuni. Toshkent. 2000 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Buhgalteriya hisobi to‘g‘risida” gi Qonuni. Toshkent 1996 yil.
4. “Tekshirishlarni tartibga solish va nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirishni takomillashtirish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Farmoni. Toshkent. Xalq so‘zi. 1996 yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moliyaviy nazoratni qo‘llab - quvvatlash va moliyaviy nazoratning auditorlik shakllarini xo‘jalik xayotga tadbiq qilish to‘g‘risida” gi Qarori. Toshkent. 1993 yil.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Korxonani moliyaviy nazorat va uni xo‘jaliklar hisobga joriy qilishda auditorlik - moliya nazoratining shakllari to‘g‘risida” gi Qarori. Toshkent. Xalq so‘zi. 1993 yil. №198.

7. “Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlarining ahamiyatini oshirish to‘g‘risida” gi Qarori. Toshkent. 2000 yil. №365.
8. Azimovna, R. F. (2024). Yoshlar tadbirkorligi va uni rivojlantirish choratadbirlari. Fan, tadqiqot va ishlanmalardagi eng yaxshi innovatsiyalar jurnali , 3340-343.
9. Rahmatullaeva, F., & Sharobiddinov, A. (2023). YALPI HUDUDIIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO ‘LLARI. Izhtimo-gumanitar fanlarning muammolari/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. , 3 (S/4), 140-146.
10. Asqarov, X. va Mirzayev, B. (2023). LEGO G ‘ISHT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASINI TADQIQ QILISH. OLTIN MIYA , 1 (5), 4-8.
11. TAXIROVNA, Y. Z. (2024). Namlik va uning turlari. Ilm-fanni targ‘ib qilish , 5 (1), 374-377.
12. Takhirovna, Y. Z. (2024). EFFECT OF ELECTRIC CURRENT ON THE HUMAN BODY. Science and innovation, 3(A2), 183-186.
13. qizi Mirzayeva, U. M. (2023). “FIZIKA”FANINI O ‘QITISHDA.
14. Asqarov, X. A., Asqarova, M. B. Q., & Axmadaliyev, USO (2021). Bino va inshootlarni qurishda g‘ishtlarning tahlili. *Ilmiy taraqqiyot* , 1 (6), 1112-1116.
15. Asqarov, X. A., Egamberdiyeva, S. A., Maxmudov, S. M. (2022 yil, noyabr). “LEGO” G ‘ISHT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI. *21-asrda innovatsion ta’limning o‘rni va ahamiyatiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyada* (1-jild, №7, 102-106-betlar).
16. Asqarov, X. va Mamajonov, M. (2023). Inshoot va binolarga zilzila ta’siri yuklar tahlili. *Oltin miya* , 1 (6), 12-14.
17. Askarov, X. (2023). SILIKAT MATERIALLARDAN TAYORLANGAN G ‘ISHTLARDAN BINO INSHOOTLARINI QURISH TAHLILI. *GOLDEN BRAIN*, 1(8), 162-164.
18. Askarov, X., & Qodirova, G. (2023). ALABASTR VA GIPS QURILISHDA QO ‘LLASH XUSUSIYATLARI TAHLILI. *GOLDEN BRAIN*, 1(5), 55-58.
19. Mirzayev, B. O., & Askarov, X. (2023). METHODS FOR CALCULATING BRICK CONSUMPTION WHEN BUILDING WALLS FROM SILICATE AND CERAMIC BRICKS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(08), 1-14.
20. Asqarov, X., & Zokirjonov, A. (2023). MAHALLIY CHIQRINDI TOSHLARDAN LEGO G‘ISHT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASINI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI* , 3 (10), 40-43..

21. Raximov, R. A., Asqarov, X., & Zokirjonov, A. (2023). MAHALLIY CHIQINDI TOSHLARDAN PRESS USULIDA KONSTRUKTIV MUSTAXKAMLIKKA EGA BO'LGAN G'ISHT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI. *ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI*, 2 (9), 11-15.

22. Asqarov, X. A., Egamberdiyeva, S. A., Maxmudov, S. M. (2022 yil, noyabr). "LEGO" G 'ISHT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI. *21-asrda innovatsion ta'limning o'rni va ahamiyatiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada* (1-jild, №7, 102-106-betlar).

23. Asqarov, X. va Qodirova, G. (2023). ALABASTR VA GIPS QURILISHDA QO 'LLASH XUSUSIYATLARI TAHLILI. *OLTIN MIYA*, 1 (5), 55-58.

24. Askarov, X. A., & Maxmudov, S. M. (2022, November). QURILISH SANOATIDA KERAMZIT BETON TO 'SQICHLAR TAYYORLASH INNOVATSION TEXNOLOGIYASI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 10, pp. 99-102).

25. X, F., Sh, R., Tashtanova, M., Yalgashev, O., & Adkhamova, G. (2019). Fosfogipsning qurilish xususiyatlari, to'g'onlarni o'rab turgan loy qoldiqlari uchun material sifatida. *Fan, muhandislik va texnologiya sohasida ilg'or tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 6 (7), 10270-10277.

26. Tojiboyev, B. T., & qizi Askarova, M. B. (2023). ARCHITECTURE AND LANDSCAPE OF FERGANA CITY. *GOLDEN BRAIN*, 1(13), 403-408.

27. Tojimatovich, K. I., Abdukahorovich, A. H., & Behruz, K. (2024). VINEGAR ACID REGENERATION MAKING COLUMN APPARATUS PLATES MODERNIZATION. *American Journal of Technology and Applied Sciences*, 21, 53-55.

28. Abduqaxorovich, A. X., Tojimatovich, K. I., & Islomiddin, I. (2024). CONSTRUCTIVE ANALYSIS OF PLATE COLUMNS. *American Journal of Technology and Applied Sciences*, 21, 49-52.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12673287>

NATURAL SONLAR. ARIFMETIKANING ASOSIY TEOREMASI. BUTUN SONLAR. BO'LUVCHILAR. YEVKLID ALGORITMI.

Nurkayev Shuhrat Jurayevich

Turin politexnika universiteti akademik litseyi oliy toifali matematika fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Natural sonlar. Arifmetikaning asosiy teoremasi. Butun sonlar. Bo'luvchilar. Yevklid algoritmi tushintiriladi.

Kalit so'zlar: Natural, arifmetika, amallar, algorit, teorema.

Abstract: Natural numbers in this article. The fundamental theorem of arithmetic. Whole numbers. Dividers. The Euclidean algorithm is explained.

Key words: Natural, arithmetic, operations, algorithm, theorem.

NATURAL SONLAR. ARIFMETIKANING ASOSIY TEOREMASI. BUTUN SONLAR. BO'LUVCHILAR. YEVKLID ALGORITMI.

Natural sonning natural bo'luvchisi. a, b - natural sonlar bo'lsin. Agar $a = b \cdot c$ tenglik o'rinli bo'ladigan natural c soni mavjud bo'lsa, a b ga bo'linadi yoki b a ning bo'luvchisi deyiladi. Eslatib o'tamiz, $a:b$ - a ning b ga qoldiqsiz bo'linishini bildiradi.

Teorema 1. $a = p_1^{\alpha_1} \cdot p_2^{\alpha_2} \cdot \dots \cdot p_k^{\alpha_k}$, $\alpha_i \neq 0$, $i = 1, \dots, k$ - a sonining kanonik yoyilmasi bo'lsin. U holda a sonining istalgan natural bo'luvchisi $p_1^{\beta_1} \cdot p_2^{\beta_2} \cdot \dots \cdot p_k^{\beta_k}$, $0 \leq \beta_i \leq \alpha_i$, $i = 1, \dots, k$ ko'rinishga ega bo'ladi.

Isbot. $a = b \cdot c$ bo'lsin, ya'ni b - a sonining bo'luvchisi va $p_1^{\alpha_1} \cdot p_2^{\alpha_2} \cdot \dots \cdot p_k^{\alpha_k}$ - a sonining kanonik yoyilmasi bo'lsin. Agar $b = 1$ bo'lsa, u holda $b = p_1^0 \cdot p_2^0 \cdot \dots \cdot p_k^0$ bo'ladi va teoremaning tasdig'i o'rinli bo'ladi. $b > 1$ bo'lsin. U holda $p_1^{\alpha_1} \cdot p_2^{\alpha_2} \cdot \dots \cdot p_k^{\alpha_k} = b \cdot c$ ga ega bo'lamiz. p - b ning tub bo'luvchisi bo'lsin. U holda $a:b$ va $b:p$ bo'lgani uchun $a:p$ bo'ladi. Demak, p - a ning tub bo'luvchisi hisoblanadi. Shuning uchun b ning har bir p tub bo'luvchisi p_1, p_2, \dots, p_k tub sonlaridan biri hisoblanadi. Shunday qilib, b ni quyidagicha yozish mumkin:

$$b = p_1^{\beta_1} \cdot p_2^{\beta_2} \cdot \dots \cdot p_k^{\beta_k}, \text{ где } 0 \leq \beta_1 \leq \alpha_1, \dots, 0 \leq \beta_k \leq \alpha_k.$$

Natural sonning natural bo'luvchilari soni.

Teorema 2. Agar $p_1^{\alpha_1} \cdot p_2^{\alpha_2} \cdot \dots \cdot p_k^{\alpha_k}$ - a natural sonning kanonik yoyilmasi bo'lsa, u holda a sonining barcha natural bo'luvchilari soni quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\tau(a) = (\alpha_1 + 1) \cdot \dots \cdot (\alpha_k + 1).$$

Isbot. a sonning har qanday d natural bo'luvchisi $d = p_1^{\beta_1} \cdot p_2^{\beta_2} \cdot \dots \cdot p_k^{\beta_k}$, bu yerda $0 \leq \beta_1 \leq \alpha_1, \dots, 0 \leq \beta_k \leq \alpha_k$, (1) ko'rinishga ega bo'lgani uchun, a sonining barcha bo'luvchilari soni (1) shartlarni qonoatlantiruvchi barcha tartiblangan $\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_k$ to'plamlar soniga teng bo'ladi.

(1) shartlar tufayli, har bir β_i $\alpha_i + 1$ qiymatlarni, aniqrog'i $\beta_i = 0, 1, \dots, \alpha_i$ larni qabul qiladi. Bundan tashqari, $\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_k$ ning turli qiymatlarini tanlash bir-biriga bog'liq emas. Demak, $\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_k$ ning barcha tartiblangan to'plamlar soni $(\alpha_1 + 1) \cdot \dots \cdot (\alpha_k + 1)$ ga teng bo'ladi.

Misol 1. 12 sonining natural bo'luvchilar sonini hisoblang.

12 sonining kanonik yoyilmasi topamiz: $12 = 2^2 \cdot 3$. U holda

$$\tau(12) = (2 + 1) \cdot (1 + 1) = 6.$$

Shuni ham yodda tutish kerakki, a natural sonning barcha natural bo'luvchilari yig'indisi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\sigma(a) = \frac{p_1^{\alpha_1+1} - 1}{p_1 - 1} \cdot \dots \cdot \frac{p_k^{\alpha_k+1} - 1}{p_k - 1}$$

Arifmetikaning asosiy teoremasi.

Teorema 3. Har qanday natural son – bu yo bir, yoki tub son, yoki ko'paytuvchilarning yozilish tartibi nazarga olinmaydigan tub sonlar ko'paytmasi sifatida yagona tarzda ifodalanishi mumkin.

Isbot. Matematik induksiya metodini qo'llaymiz. a - qandaydir natural son bo'lsin. Agar $a = 1$ bo'lsa, teoremaning tasdig'i o'rinli bo'ladi. Faraz qilaylik, barcha $b, b < a$ natural sonlar uchun teorema o'rinli, ya'ni yo $b = 1$, yoki b - tub son yoki b ko'paytuvchilarning yozilish tartibi nazarga olinmaydigan tub sonlar ko'paytmasi sifatida yagona tarzda ifodalansin.

a natural son uchun teoremani a dan kichik bo'lgan barcha natural sonlar uchun teorema o'rinli degan faraz ostida isbotlaylik.

Agar a tub son bo'lsa, teorema o'rinli bo'ladi. Shuning uchun a ni murakkab son deb hisoblaylik. U holda 1-bo'limdagi 1-teoremaga ko'ra, a ning eng kichik bo'luvchisi p_1 - tub son bo'ladi. Shuning uchun $a = p_1 \cdot b$ bo'ladi, bu yerda b - a dan

kichik qandaydir natural son. Induksiya faraziga ko'ra b soni uchun, teorema o'rinli bo'ladi, ya'ni $b = p_2 p_3 \dots p_k$. Demak, $a = p_1 p_2 \dots p_k$.

Shunday qilib, har qanday a natural son tub sonlar ko'paytmasiga ajralishi mumkin ekan.

Ko'paytuvchilarning yozilish tartibi nazarga olinmaydigan tub sonlar ko'paytmasi sifatida yagona tarzda ifodalanishi mumkinligini isbotlaylik.

$a = q_1 \cdot q_2 \cdot \dots \cdot q_m$ - a sonining tub sonlar ko'paytmasiga yana bir yoyilmasi bo'lsin. U holda $p_1 \cdot p_2 \cdot \dots \cdot p_k = q_1 \cdot q_2 \cdot \dots \cdot q_m$ (2) bo'ladi.

Tenglikning ikkala qismi ham p_1 ga bo'linadi, xususan, $q_1 \cdot q_2 \cdot \dots \cdot q_m - p_1$ ga bo'linadi. q_1, q_2, \dots, q_m tub sonlar bo'lgani uchun, shunday $q_i, i \in \{1, 2, \dots, m\}$ lar mavjudki, $q_i = p_1$ bo'ladi. Aniqlik uchun biz $q_1 = p_1$ deb faraz qilamiz. U holda

$$b = p_2 \cdot \dots \cdot p_k = q_2 \cdot \dots \cdot q_m \quad (3) \text{ bo'ladi.}$$

$b < a$ bo'lgani uchun, induksiya faraziga ko'ra, (3) yoyilma va demak (2) yoyilma ham ko'paytmalarning tartibiga qadar yagonadir.

a natural sonini tub sonlar ko'paytmasiga yoyilmasida faqat m xil tub sonlar qatnashsa va $p_1 - \alpha_1$ marta, $p_2 - \alpha_2$ marta va hokazo, $p_m - \alpha_m$ marta qatnashsa, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$a = p_1^{\alpha_1} \cdot p_2^{\alpha_2} \cdot \dots \cdot p_m^{\alpha_m}$$

Bunday yoyilma natural sonning kanonik yoyilmasi deyiladi.

Misol 2. $108 = 2^2 \cdot 3^3$ - 108 natural sonining kanonik yoyilmasi.

Tub va murakkab sonlar. Qadim zamonlarda ham sonlar predmetlarni sanash va miqdorlarni o'lchash uchun ishlatilgan. Predmetlarni sanash uchun ishlatiladigan sonlar natural sonlar deb ataladi. Shunday qilib, $1, 2, 3, \dots$ natural sonlardir.

$N = \{1, 2, 3, \dots\}$ - natural sonlar to'plami deyiladi.

$a, b \in N$ bo'lsin. Agar $a = b \cdot q$ tenglik bajariladigan $q \in N$ mavjud bo'lsa, u holda a b ga bo'linadi deymiz va $a : b$ deb yozamiz. Bunda b soni a sonining bo'luvchisi deyiladi. Agar a soni b soniga bo'linmasa, $a \nmid b$ deb yoziladi.

Misol 3. $1 : 1$ (bir soni faqat bitta natural bo'luvchiga ega);

$2 : 1, 2 : 2$ (2 soni faqat ikkita natural bo'luvchiga ega).

4 soni uchta natural bo'luvchilarga ega : 1, 2 va 4.

Faqat ikkita turli natural bo'luvchiga ega bo'lgan natural son tub son deyiladi. Bu ta'rifdan kelib chiqadiki, tub son faqat birga va o'ziga bo'linadigan birdan farqli natural sonidir.

Misol 4. 2, 3, 5, 7 sonlari tub sonlarga misollar hisoblanadi.

Kamida uch xil natural bo'luvchiga ega bo'lgan natural sonlar murakkab sonlar deyiladi. Bu ta'riflardan kelib chiqadiki, 1- tub son ham, murakkab son ham emas. Agar a murakkab son bo'lsa, a ning 1 va a dan boshqa hech bo'lmaganda bitta natural bo'luvchisi bor.

Misol 5. 4, 6, 8, 9, 10 lar murakkab sonlarga misollar hisoblanadi.

Shunday qilib, har qanday natural a soni - bir, yoki tub son yoki murakkab son ekan.

Teorema 4. a - birdan farqli natural son va p - uning eng kichik bo'luvchisi va, $p > 1$ bo'lsin. U holda p - tub son bo'ladi.

Isbot. $a \neq 1$ bo'lsin. Faraz qilaylik, p - tub son bo'lmasin. U holda p - murakkab son. Demak, p ning $p_1 \neq 1$, $p_1 \neq p$ shartlarini qanoatlantiruvchi p_1 bo'luvchisi bor. Shuning uchun, $a : p$ va $p : p_1$. U holda $a : p_1$ va $1 < p_1 < p$. Bu p - a ning eng kichik bo'luvchisi ekanligiga zid keladi.

Teorema 5. Har qanday murakkab a soni $p < \sqrt{a}$ shartni qanoatlantiradigan kamida bitta p tub bo'luvchiga ega.

Isbot. a murakkab son bo'lgani uchun p (eng kichik bo'luvchi) tub son va $a = p \cdot q$ va $p \neq 1$, $q \neq 1$ bo'ladigan q soni mavjud bo'ladi. $p < q$ bo'lsin. U holda $p^2 < pq = a$ bo'ladi. Demak, $p < \sqrt{a}$.

Tub sonlar to'plamining cheksizligi.

Teorema 6. (Yevklid teoremasi). Tub sonlar to'plami cheksiz to'plamdir.

Isbot. Teskarisini faraz qilaylik. Tub sonlar to'plami chekli to'plam bo'lsin, ya'ni $P = \{p_1, p_2, \dots, p_k\}$ - barcha tub sonlar to'plami bo'lsin. $a = p_1 p_2 \dots p_k + 1$ sonini ko'rib chiqaylik. $a \neq 1$, $a \notin P$ va a soni p_1, p_2, \dots, p_k tub sonlarning birortasiga bo'linmaydi. a ning tub bo'luvchilari yo'qligi sababli, 2-teoremaga ko'ra, a - tub sonidir. Bu esa $a \notin P$ shartiga zid keladi. Shuning uchun tub sonlar to'plami chekli to'plam bo'la olmaydi va shuning uchun cheksizdir.

Qoldiqli bo'lish haqidagi teorema.

Teorema 7. a va b natural sonlar bo'lsin. U holda a sonini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$a = b \cdot q + r, \quad (4)$$

bu yerda q, r - natural sonlar yoki 0 va $0 \leq r < b$.

Isbot. Matematik induksiya metodini qo'llaymiz. $a = 1$ bo'lsin. Ikki holatni ko'rib chiqaylik: $b = 1$ va $b > 1$. Agar $b = 1$ bo'lsa, u holda $1 = 1 \cdot 1 + 0$ va teorema

o‘rinli. Agarda $b > 1$ bo‘lsa, u holda $1 = b \cdot 0 + 1$, ya’ni teoremaning tasdig‘i bu holatda ham o‘rinli bo‘ladi. Shunday qilib, $a = 1$ uchun teorema o‘rinli bo‘ladi.

$a \leq k$ sonlar uchun teorema o‘rinli bo‘ladi deb faraz qilaylik. $a = k + 1$ bo‘lsin. $k = b \cdot q + r$, bu erda $0 \leq r < b$, bo‘lganligi sababli, $k + 1 = b \cdot q + r + 1$ bo‘ladi. Demak, agarda $r + 1 < b$ bo‘lsa, teorema o‘rinli bo‘ladi. $r + 1 \geq b$ bo‘lsin. $r + 1 < k + 1$ bo‘lgani uchun, induksiya faraziga ko‘ra, $r + 1 = b \cdot q_1 + r_1$ bo‘ladi, bu erda $0 \leq r_1 < b$. Shuning uchun

$$k + 1 = b \cdot q + b \cdot q_1 + r_1 = b(q + q_1) + r_1, \quad 0 \leq r_1 < b.$$

Demak, $a = k + 1$ soni uchun teoremaning tasdig‘i ham bajariladi. Bu esa teoremani isbotlashni yakunlaydi.

Yevklid algoritmi. a va b natural sonlar bo‘lsin. U holda yuqorida isbotlangan teoreмага ko‘ra $a = b \cdot q_0 + r_1$, $0 \leq r_1 < b$ tengligi bajariladigan q_0 va r_1 sonlar mavjud bo‘ladi.

$r_1 > 0$ bo‘lsin. Bo‘luvchi b ni qoldiq r_1 ga bo‘lamiz. U holda $b = r_1 \cdot q_1 + r_2$, $0 \leq r_2 < r_1$ bo‘ladi. Agar $r_2 > 0$ bo‘lsa, r_1 bo‘luvchini r_2 qoldiqqa bo‘lamiz va hokazo. Quyidagilarga ega bo‘lamiz:

$$\begin{aligned} a &= b \cdot q_0 + r_1, \quad 0 \leq r_1 < b, \\ b &= r_1 \cdot q_1 + r_2, \quad 0 \leq r_2 < r_1, \\ r_1 &= r_2 \cdot q_2 + r_3, \quad 0 \leq r_3 < r_2, \\ &\dots\dots\dots \\ r_{n-3} &= r_{n-2} \cdot q_{n-2} + r_{n-1}, \quad 0 \leq r_{n-1} < r_{n-2}, \\ r_{n-2} &= r_{n-1} \cdot q_{n-1} + r_n, \quad 0 \leq r_n < r_{n-1}, \\ r_{n-1} &= r_n \cdot q_n. \end{aligned}$$

Shartga ko‘ra, $b > r_1 > r_2 > r_3 > \dots > r_n$. Shuning uchun bu bo‘linish jarayoni cheklangan miqdordagi bo‘linishdan keyin tugaydi. Shunday qilib, quyidagi qoldikli bo‘linishlar zanjirini hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} a &= b \cdot q_0 + r_1, \quad 0 \leq r_1 < b, \\ b &= r_1 \cdot q_1 + r_2, \quad 0 \leq r_2 < r_1, \\ r_1 &= r_2 \cdot q_2 + r_3, \quad 0 \leq r_3 < r_2, \\ &\dots\dots\dots \\ r_{n-3} &= r_{n-2} \cdot q_{n-2} + r_{n-1}, \quad 0 \leq r_{n-1} < r_{n-2}, \quad (5) \\ r_{n-2} &= r_{n-1} \cdot q_{n-1} + r_n, \quad 0 \leq r_n < r_{n-1}, \\ r_{n-1} &= r_n \cdot q_n, \\ r_{n+1} &= 0. \end{aligned}$$

Bu ketma-ket bo‘linish jarayoni Yevklid algoritmi deb ataladi

Misol 6. Quyidagi sonlar uchun Yevklid algoritmini tuzing:

- 1) $a = 9, b = 7$;

$$2) a = 22, b = 8.$$

Yechish.

$$1) 9 = 7 \cdot 1 + 2, 2) 22 = 8 \cdot 2 + 6,$$

$$7 = 2 \cdot 3 + 1, 8 = 6 \cdot 1 + 2,$$

$$2 = 1 \cdot 2. 6 = 2 \cdot 3.$$

Lemma. $a = b \cdot q + r, 0 \leq r < b$ bo'lsin. U holda

$$EKUB(a, b) = EKUB(b, r) \text{ bo'ladi.}$$

Isbot.

$d_1 = EKUB(a, b)$ va $d_2 = EKUB(b, r)$ bo'lsin. U holda $a : d_1$ va $b : d_1$ bo'ladi.

$a = b \cdot q + r$ shartiga ko'ra $r = a - b \cdot q$ dan $r : d_1$ kelib chiqadi. U holda $d_1 - b$ va r ning umumiy bo'luvchisi bo'ladi va demak, $d_2 : d_1$. Xuddi shunday, $b : d_2, r : d_2$ va $a = b \cdot q + r$ ligidan $a : d_2$ kelib chiqadi. Shuning uchun $d_1 : d_2$. Demak, $d_1 = d_2$. Lemma isbotlandi.

Teorema 8. (5) - a va b natural sonlar uchun tuzilgan Yevklid algoritmi bo'lsin. U holda oxirgi noldan farqli r_n qoldiq a va b ning eng katta umumiy bo'luvchisidir.

Isbot. Yuqorida isbotlangan lemmaga ko'ra, quyidagilarga egamiz:

$$\begin{aligned} EKUB(a, b) &= EKUB(b, r_1) = EKUB(r_1, r_2) = EKUB(r_2, r_3) = \dots \\ &= EKUB(r_{n-3}, r_{n-2}) = EKUB(r_{n-2}, r_{n-1}) = EKUB(r_{n-1}, r_n). \end{aligned}$$

Lekin $r_{n-1} : r_n$. Shuning uchun $EKUB(r_{n-1}, r_n) = r_n$ bo'ladi. Bundan esa $EKUB(a, b) = r_n$ ekanligi kelib chiqadi.

Misol 5. Yevklid algoritmidan foydalanib, $EKUB(1067, 582)$ ni toping.

Yechish. $1067 = 582 \cdot 1 + 485$

$$582 = 485 \cdot 1 + 97$$

$$485 = 97 \cdot 5.$$

Shuning uchun $EKUB(1067, 582) = 97$.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12673401>

SONNING BUTUN VA KASR QISMLARI QATNASHGAN TENGLAMALAR.

Nurkayev Shuhrat Jurayevich

Turin politexnika universiteti akademik litseyi oliy toifali matematika fani
o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sonning butun va kasr qismlari qatnashgan tenglamalar tushintiriladi.

Kalit so'zlar: Kvadrat, ildiz, tenglama, tenglik, son.

Abstract: This article explains equations involving integer and fractional parts of a number.

Key words: Square, root, equation, equality, number.

SONNING BUTUN VA KASR QISMLARI QATNASHGAN TENGLAMALAR.

O'rta maktab kurslarida turli chiziqli, kvadrat va hokazo tenglamalar o'rganilgan. Quyida tenglamaning ta'riflari va tenglamalar yechimini umumiy shaklda keltiramiz.

Ta'rif 1. $f(x)$ va $g(x)$ - x ga bog'liq biror ifodalar bo'lsa, $f(x) = g(x)$ ko'rinishdagi tenglik bir noma'lum tenglama deyiladi.

Ta'rif 2. X to'plamining x qiymatlarini tenglamaga qo'yganda, to'g'ri sonli tenglik hosil bo'lsa, ular berilgan tenglamaning yechimi deb ataladi va har bir bunday x qiymat tenglamaning ildizi hisoblanadi. Agar bunday to'plam bo'sh bo'lsa, u holda tenglama yechimga ega emas deyiladi.

Tenglamani yechish - bu uning barcha ildizlarini topish yoki tenglamaning yechimi yo'qligini isbotlashni bildiradi.

Misol 1. $3x + 1 = x^2 - 1$, $5x^2 - 2x = 0,25$ va $x^4 - 3x^2 + 8 = 0$ lar bir noma'lumli tenglamalarga misollar bo'ladi.

Пример 2. Quyidagi tenglamalarni yeching:

a) $x^2 + x - 20 = 0$;

b) $|x| + 1 = x + 1$;

d) $x^2 + x = -3$.

Yechish.

a) $x^2 + x - 20 = 0$ tengligi x faqat 4 va -5 qiymatlarini qabul qilgandagina bajariladi. Shuning uchun $\{-5; 4\}$ to'plam - tenglamaning yechimi va ko'rsatilgan sonlarning har biri tenglamaning ildizidir.

b) $|x| + 1 = x + 1$ tengligi barcha $x \in [0; +\infty)$ uchun bajariladi. Demak, $[0; +\infty)$ to'plam tenglamaning yechimi bo'lib, $[0; +\infty)$ to'plamdagi har bir x qiymati tenglamaning ildizi hisoblanadi.

d) $x^2 + x = -3$ tengligi x ning haqiqiy qiymatlarida bajarilmaydi, shuning uchun tenglamaning (haqiqiy sonlar to'plamida) yechimi yo'q.

$[ax + b] = c$ ($a \neq 0$) ko'rinishdagi tenglamalarni yechish.

$[ax+b]=c$ tenglamani ko'rib chiqamiz va uning yechimini qanday topishni ko'rsatamiz. Agar c butun son bo'lmasa, u holda tenglama yechimga ega emas. c - butun son bo'lsin. U holda sonning butun qismi ta'rifiga ko'ra

$$c \leq ax + b < c + 1 \text{ ga ega bo'lamiz.}$$

Bundan $a > 0$ uchun $\frac{c-b}{a} \leq x < \frac{c-b+1}{a}$ ni; $a < 0$ uchun $\frac{c-b+1}{a} < x \leq \frac{c-b}{a}$ ni hosil qilamiz.

Misol 3. $[2x + 3] = 5$ tenglamani yeching.

Yechish. Sonning butun qismi ta'rifiga ko'ra quyidagiga egamiz:

$$5 \leq 2x + 3 < 6,$$

Bu tengsizliklarni yechib,

$$2 \leq 2x < 3 \text{ ni hosil qilamiz.}$$

yoki

$$1 \leq x < 1,5.$$

Javob: $x \in [1; 1,5)$.

$[ax^2 + bx + c] = d$ ($a \neq 0$) ko'rinishdagi tenglamalarni yechish.

Agar d butun son bo'lmasa, u holda tenglama yechimga ega bo'lmaydi. d - butun son bo'lsin. U holda

$$d \leq ax^2 + bx + c < d + 1 \text{ ga ega bo'lamiz.}$$

So'ngra quyidagi tengsizliklar sistemasini yechib:

$$\begin{cases} ax^2 + bx + c \geq d \\ ax^2 + bx + c < d + 1 \end{cases}$$

berilgan tenglamaning yechimlarini hosil qilamiz.

Misol 4. $[2x^2 - 5x + 3] = 2,5$ tenglamani yeching.

Yechish. 2,5 - butun son bo'lmagani uchun tenglama yechimga ega emas.

Javob: \emptyset .

Misol 5. $[x^2 + x] = 1$ tenglamani yeching.

Yechish. Sonning butun qismi ta'rifiga ko'ra quyidagiga egamiz:

$$\begin{cases} x^2 + x \geq 1 \\ x^2 + x < 2. \end{cases}$$

Dastlab $x^2 + x - 1 = 0$ va $x^2 + x - 2 = 0$ kvadrat tenglamalarni yechib, mos $x_{1,2} = \frac{-1 \pm \sqrt{5}}{2}$ va $x_3 = 1, x_4 = -2$ yechimlarini hosil qilamiz. So'ngra tengsizliklar sistemasi uchun oraliqlar usulini qo'llab, quyidagilarni hosil qilamiz:

$$\begin{cases} x \in \left(-\infty; \frac{-1 - \sqrt{5}}{2}\right] \cup \left[\frac{-1 + \sqrt{5}}{2}; +\infty\right) \\ x \in (-2; 1) \end{cases}$$

Oraliqlarni kesishtirib, $x \in \left(-2; \frac{-1 - \sqrt{5}}{2}\right] \cup \left[\frac{-1 + \sqrt{5}}{2}; 1\right)$ ko'rinishdagi javobni hosil qilamiz.

$\{ax + b\} = c$ ($a \neq 0$) ko'rinishdagi tenglamalarni yechish.

Agar $c < 0$ yoki $c \geq 1$ bo'lsa, u holda tenglama yechimga ega bo'lmaydi. Agarda $c \in [0; 1)$ bo'lsa, u holda $ax + b = c + n, n \in Z$ larga ega bo'lamiz. Bundan

$$x = \frac{c+n-b}{a}, n \in Z \text{ kelib chiqadi.}$$

Misol 6. $\{3x - 5\} = 4$ tenglamani yeching.

Yechish. $4 \geq 1$ bo'lgani uchun berilgan tenglama yechimga ega emas.

Misol 7. $\{2x + 5\} = 0,4$ tenglamani yeching.

Yechish. Sonning kasr qismi ta'rifiga ko'ra quyidagiga egamiz:

$$2x + 5 = 0,4 + n, n \in Z,$$

Bundan

$$x = -2,3 + \frac{n}{2}, n \in Z \text{ ni hosil qilamiz.}$$

Misol 8. $[x] + [2x] + [3x] = 4$ tenglamani yeching.

Yechish. Avval $x \leq 0$ bo'lsin. U holda $[x] \leq 0, [2x] \leq 0, [3x] \leq 0$ larni hosil qilamiz. Bu tengsizliklarni qo'shib, $[x] + [2x] + [3x] \leq 0$ ni hosil qilamiz.

Shuning uchun $x \leq 0$ bo'lganda berilgan tenglama yechimga ega bo'lmaydi.

$x > 0$ bo'lsin. U holda $[x] \leq [2x] \leq [3x]$ ga ega bo'lamiz. Bunday holda, berilgan tenglama quyidagi to'rtta tenglamalar sistemasining birlashmasiga teng kuchlidir:

$$\text{a) } \begin{cases} [x] = 0, \\ [2x] = 0, \\ [3x] = 4; \end{cases} \text{ b) } \begin{cases} [x] = 0, \\ [2x] = 1, \\ [3x] = 3; \end{cases} \text{ d) } \begin{cases} [x] = 0, \\ [2x] = 2, \\ [3x] = 2; \end{cases} \text{ e) } \begin{cases} [x] = 1, \\ [2x] = 1, \\ [3x] = 2. \end{cases}$$

Har bir sistemani alohida yechib olamiz:

$$\begin{aligned}
 \text{a) } & \begin{cases} [x] = 0, \\ [2x] = 0, \\ [3x] = 4, \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 0 \leq x < 1, \\ 0 \leq 2x < 1, \\ 4 \leq 3x < 5, \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 0 \leq x < 1, \\ 0 \leq x < \frac{1}{2}, \\ \frac{4}{3} \leq x < \frac{5}{3}, \end{cases} \Leftrightarrow \emptyset. \\
 \text{b) } & \begin{cases} [x] = 0, \\ [2x] = 1, \\ [3x] = 3, \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 0 \leq x < 1 \\ 1 \leq 2x < 2 \\ 3 \leq 3x < 4 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 0 \leq x < 1 \\ \frac{1}{2} \leq x < 1 \\ 1 \leq x < \frac{4}{3} \end{cases} \Leftrightarrow \emptyset. \\
 \text{d) } & \begin{cases} [x] = 0, \\ [2x] = 2, \\ [3x] = 2, \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 0 \leq x < 1 \\ 2 \leq 2x < 3 \\ 2 \leq 3x < 3 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 0 \leq x < 1 \\ 1 \leq x < \frac{3}{2} \\ \frac{2}{3} \leq x < 1 \end{cases} \Leftrightarrow \emptyset. \\
 \text{e) } & \begin{cases} [x] = 1, \\ [2x] = 1, \\ [3x] = 2, \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 1 \leq x < 2 \\ 1 \leq 2x < 2 \\ 2 \leq 3x < 3 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 1 \leq x < 2 \\ \frac{1}{2} \leq x < 1 \\ \frac{2}{3} \leq x < 1 \end{cases} \Leftrightarrow \emptyset.
 \end{aligned}$$

Shunday qilib, $[x] + [2x] + [3x] = 4$ tenglama yechimga ega emas.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12673424>

TAQQOSLAMALAR VA ULARNING XOSSALARI. RATSIONAL VA IRRATSIONAL SONLAR.

Nurkayev Shuhrat Jurayevich

Turin politexnika universiteti akademik litseyi oliy toifali matematika fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Taqqoslamalar va ularning xossalari. Ratsional va irratsional sonlar tushintiriladi.

Kalit so'zlar: Ratsional, son, isbot, butun, teorema.

Abstract: In this article, Comparisons and their properties. Rational and irrational numbers are explained.

Key words: Rational, number, proof, whole, theorem.

TAQQOSLAMALAR VA ULARNING XOSSALARI. RATSIONAL VA IRRATSIONAL SONLAR.

Taqqoslamalar. a va b - butun sonlar va m 1 dan katta natural son bo'lsin. Agar $a - b$ m ga bo'linsa, u holda a soni b soniga m modul bo'yicha taqqoslanadigan son deyiladi va $a \equiv b \pmod{m}$ kabi yoziladi.

Misol 1. $a = 5$, $b = 16$, $m = 11$ berilgan bo'lsin. U holda $5 - 16 = -11$ va $-11 : 11$ bo'ladi. Shuning uchun $5 \equiv 16 \pmod{11}$ munosabatni yozish mumkin.

Xuddi shunday, $6 \equiv 17 \pmod{11}$ yozish mumkin.

Teorema 1. Agar $a, b \in \mathbb{N}$, $a \equiv b \pmod{m}$ bo'lsa, a va b sonlar m soniga bo'linganda bir xil qoldiqni beradi.

Isbot. Aniqlik uchun $a \geq b$ bo'lsin. $a \equiv b \pmod{m}$ munosabati $(a - b) : m$ ekanini bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, $a - b = m \cdot q$ bo'ladigan q soni mavjud bo'ladi. Demak, $a = m \cdot q + b$.

$b = m \cdot q' + r$, $0 \leq r < m$ bo'lsin. U holda

$$a = m \cdot q + m \cdot q' + r = m \cdot (q + q') + r, 0 \leq r < m \text{ bo'ladi.}$$

Shunday qilib, a va b sonlari m soniga bo'linganda bir xil r qoldiqni beradi.

Teorema 2. Agar a va b natural sonlari 1 dan katta m soniga bo'linganda, bir xil qoldiq hosil bo'lsa, u holda $a \equiv b \pmod{m}$ bo'ladi.

Isbot. Shartga ko'ra $a = m \cdot q + r$, $0 \leq r < m$ va $b = m \cdot q' + r$, $0 \leq r < m$. U holda $a - b = (m \cdot q + r) - (m \cdot q' + r) = m \cdot q - m \cdot q' = m \cdot (q - q')$.

Demak, $a - b = m \cdot (q - q')$. Bundan $a \equiv b \pmod{m}$ kelib chiqadi.

Taqqoslamaning xossalari. m 1 dan katta butun son bo'lsin. Taqqoslama munosabati quyidagi xossalarga ega:

1⁰. Har qanday a va m , $m > 1$ butun sonlar uchun $a \equiv a \pmod{m}$.

Isbot. $a - a = 0$ va $0 : m$. Bundan $a \equiv a \pmod{m}$ kelib chiqadi.

2⁰. Agar a va b butun sonlar uchun $a \equiv b \pmod{m}$ bo'lsa, u holda $b \equiv a \pmod{m}$ bo'ladi.

Isbot. $a \equiv b \pmod{m}$ berilgan. Demak, $(a - b) : m$ bo'ladi. U holda $(a - b) : m$ yoki $(b - a) : m$ bo'ladi. Bundan $b \equiv a \pmod{m}$ ligi kelib chiqadi.

3⁰. Agar $a \equiv b \pmod{m}$ va $b \equiv c \pmod{m}$ bo'lsa, u holda $a \equiv c \pmod{m}$ bo'ladi.

Isbot. $a \equiv b \pmod{m}$ va $b \equiv c \pmod{m}$ berilgan bo'lsin. U holda $(a - b) : m$ va $(b - c) : m$ bo'ladi. Bundan $((a - b) + (b - c)) : m$ yoki $(a - c) : m$ ligi kelib chiqadi. Bu esa $a \equiv c \pmod{m}$ ligini bildiradi.

4⁰. Taqqoslamalarni hadma-had qo'shish va ayirish mumkin, ya'ni agar $a \equiv b \pmod{m}$ va $c \equiv d \pmod{m}$ bo'lsa, u holda $a + c \equiv b + d \pmod{m}$ va $a - c \equiv b - d \pmod{m}$ bo'ladi.

Isbot. Shartga ko'ra $(a - b) : m$ va $(c - d) : m$. U holda $((a - b) + (c - d)) : m$ yoki $((a + c) - (b + d)) : m$ larni hosil qilamiz. Bu esa $a + c \equiv b + d \pmod{m}$ ligini bildiradi.

Qaralayotgan xossaning ikkinchi qismi ham shunga o'xshash isbotlanadi.

5⁰. Agar $a \equiv b \pmod{m}$ va $c \equiv d \pmod{m}$ bo'lsa, u holda $a \cdot c \equiv b \cdot d \pmod{m}$ bo'ladi, ya'ni taqqoslamalarni hadma-had ko'paytirish mumkin.

Isbot. Shartga ko'ra $(a - b) : m$ va $(c - d) : m$. Quyidagi tengliklar o'rinli:
 $a \cdot c - b \cdot d = a \cdot c - c \cdot b + c \cdot b - b \cdot d = c \cdot (a - b) + b \cdot (c - d)$.

$(a - b) : m$, $(c - d) : m$ bo'lgani uchun, $(c \cdot (a - b) + b \cdot (c - d)) : m$ ni hosil qilamiz. Boshqacha aytganda, $(a \cdot c - b \cdot d) : m$ yoki $a \cdot c \equiv b \cdot d \pmod{m}$ bo'ladi.

6⁰. Taqqoslamaning ikkala tomonini har qanday butun songa ko'paytirish mumkin. Bunda taqqoslama saqlanadi.

Isbot. Shartga ko'ra $a \equiv b \pmod{m}$. 1⁰ - xossaga asosan $c \equiv c \pmod{m}$ ni hosil qilamiz. U holda 5⁰ -xossaga asosan $a \cdot c \equiv b \cdot c \pmod{m}$ ni hosil qilamiz.

Taqqoslama munosabatining bo'linish alomatlarini isbotlashda qo'llanilishi.

Ma'lumki, har bir natural sonni $0, 1, 2, \dots, 9$ - to'qqizta raqamlar yordamida yozish mumkin. Masalan, 327 sonini $300 + 20 + 7$ yoki $3 \cdot 100 + 2 \cdot 10 + 7$ ko'rinishda yozish mumkin, ya'ni $3 \cdot 10^2 + 2 \cdot 10 + 7$.

Bundan keyin $a_n, a_{n-1}, \dots, a_1, a_0 \in \{0, 1, \dots, 9\}$ raqamlaridan tuzilgan $a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0$ natural sonni $a_n, a_{n-1}, \dots, a_1, a_0$ sonlar ko'paytmasidan farqlash uchun $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ ko'rinishda tasvirlaymiz.

$a_n \cdot 10^n + a_{n-1} \cdot 10^{n-1} + \dots + a_1 \cdot 10 + a_0$ yig'indi $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ sonining o'nli yoyilmasi deb ataladi.

1^o. 2 ga bo'linish alomati.

Teorema 3. Natural a soni 2 ga bo'linadi, agarda u juft raqami bilan tugasa.

Isbot. $a_n \cdot 10^n + a_{n-1} \cdot 10^{n-1} + \dots + a_1 \cdot 10 + a_0 - a$ sonining o'nli yoyilmasi bo'lsin. $10^n, 10^{n-1}, \dots, 10$ sonlari 2 ga bo'lingani uchun, a ning 2 ga bo'linishi uchun a_0 ning 2 ga bo'linishi zarur va yetarli bo'ladi. Demak, a_0 - oxirgi raqam $0, 2, 4, 6$ yoki 8 qiymatlarni qabul qiladi.

2^o. 3 ga bo'linish alomati.

Teorema 4. Natural a soni 3 ga bo'linadi, agarda raqamlari yig'indisi 3 ga bo'linadigan sonni tashkil etsa.

Isbot. Quyidagi taqqoslamalarni qaraylik:

$$\left. \begin{aligned} 1 &\equiv 1 \pmod{3} \\ 10 &\equiv 1 \pmod{3} \\ 10^2 &\equiv 1 \pmod{3} \\ \dots &\dots \\ 10^n &\equiv 1 \pmod{3} \end{aligned} \right\} (1)$$

U holda

$$\left. \begin{aligned} a_0 &\equiv a_0 \pmod{3} \\ a_1 \cdot 10 &\equiv a_1 \pmod{3} \\ \dots &\dots \\ a_{n-1} \cdot 10^{n-1} &\equiv a_{n-1} \pmod{3} \\ a_n \cdot 10^n &\equiv a_n \pmod{3} \end{aligned} \right\} (2)$$

(2) taqqoslamalarni hadma-had qo'shib, quyidagilarni hosil qilamiz:

$$a_n \cdot 10^n + a_{n-1} \cdot 10^{n-1} + \dots + a_1 \cdot 10 + a_0 \equiv a_n + a_{n-1} + \dots + a_1 + a_0 \pmod{3}.$$

Hosil qilingan taqqoslamaning chap tomoni a soniga teng, o'ng tomoni a sonini tashkil etuvchi raqamlar yig'indisidan iborat. U holda 1, 2 teoremalardan $a : 3$ bo'ladi, faqat va faqat shu holdaki, agar a sonini tashkil etuvchi raqamlari yig'indisi 3 ga bo'linsa.

3^o. 4 ga bo'linish alomati.

Teorema 5. Agar berilgan sonning oxirgi ikki raqamidan hosil bo'lgan son 4 ga bo'linsa, a natural soni ham 4 ga bo'linadi.

Isbot. $a_n \cdot 10^n + a_{n-1} \cdot 10^{n-1} + \dots + a_1 \cdot 10 + a_0 - a$ natural sonining o'nli yoyilmasi bo'lsin. Quyidagi taqqoslamalarni qaraylik:

$$\left. \begin{aligned} 1 &\equiv 1 \pmod{4} \\ 10 &\equiv 10 \pmod{4} \\ 10^2 &\equiv 0 \pmod{4} \\ \dots &\dots \\ 10^n &\equiv 0 \pmod{4} \end{aligned} \right\} (3)$$

Bu taqqoslamalarning ikkala tomonini mos ravishda $a_0, a_1, \dots, a_{n-1}, a_n$ sonlariga ko'paytirib, quyidagilarni hosil qilamiz:

$$\left. \begin{aligned} a_0 &\equiv a_0 \pmod{4} \\ a_1 \cdot 10 &\equiv a_1 \cdot 10 \pmod{4} \\ a_2 \cdot 10^2 &\equiv 0 \pmod{4} \\ \dots &\dots \\ a_{n-1} \cdot 10^{n-1} &\equiv 0 \pmod{4} \\ a_n \cdot 10^n &\equiv 0 \pmod{4} \end{aligned} \right\} (4)$$

(4) taqqoslamalarni hadma-had qo'shib, quyidagilarni hosil qilamiz:

$$a_n \cdot 10^n + a_{n-1} \cdot 10^{n-1} + \dots + a_1 \cdot 10 + a_0 \equiv a_1 \cdot 10 + a_0 \pmod{4}$$

yoki $a \equiv \overline{a_1 a_0} \pmod{4}$. Bundan esa 1 va 2 teoremalarga ko'ra, 5-teoremaning isbotini hosil qilamiz.

4^o. 5 ga bo'linish alomati.

Teorema 6. Natural a soni 5 ga bo'linadi, agarda uning oxiri 0 yoki 5 raqami bilan tugasa.

Isbot. Quyidagi taqqoslamalarni qaraylik:

$a_n \cdot 10^n + a_{n-1} \cdot 10^{n-1} + \dots + a_1 \cdot 10 \equiv 0 \pmod{5}$ va $a_0 \equiv a_0 \pmod{5}$. Ularni hadma-had qo'shib, quyidagi taqqoslamani hosil qilamiz:

$$a_n \cdot 10^n + a_{n-1} \cdot 10^{n-1} + \dots + a_1 \cdot 10 + a_0 \equiv a_0 \pmod{5}.$$

Demak, son 5 ga faqat va faqat shu holda bo'linadiki, agarda berilgan sonning oxirgi raqami 5 ga bo'linsa. Biroq barcha raqamlar orasida faqat 0 va 5 gina 5 ga bo'linadi.

5^o. 6 ga bo'linish alomati.

Teorema 7. Agar natural soni ham 2 ga, ham 3 ga bo'linsa, u 6 ga bo'linadi. Aksincha, agar natural son 6 ga bo'linsa, u 2 ga va 3 ga bo'linadi.

Isbot. a natural soni ham 2 ga, ham 3 ga bo'linsin. U holda 2 va 3 lar o'zaro tub sonlar bo'lgani uchun a soni ularning ko'paytmasiga ham bo'linadi, ya'ni $a : 6$.

Aksincha, agar $a : 6$ bo'lsa, u holda shunday q butun soni mavjudki, $a = 6 \cdot q$ bo'ladi. Ravshanki, $(6 \cdot q) : 2$ va $(6 \cdot q) : 3$. Shuning uchun a soni 2 ga ham, 3 ga ham bo'linadi.

6^o. 8 ga bo'linish alomati.

Teorema 8. Agar a natural sonining oxirgi uchta raqamidan hosil bo'lgan son 8 ga bo'linsa, a natural soni ham 8 ga bo'linadi.

Isbot. $a_n \cdot 10^n + a_{n-1} \cdot 10^{n-1} + \dots + a_1 \cdot 10 + a_0 - a$ natural sonining o'nli yoyilmasi bo'lsin.

$1000 \equiv 0 \pmod{8}$ taqqoslama o'rinli. Demak, $a_n \cdot 10^n + a_{n-1} \cdot 10^{n-1} + \dots + a_3 \cdot 10^3 \equiv 0 \pmod{8}$. Bundan quyidagi taqqoslamani hosil qilamiz:

$$a_n \cdot 10^n + a_{n-1} \cdot 10^{n-1} + \dots + a_1 \cdot 10 + a_0 \equiv a_2 \cdot 10^2 + a_1 \cdot 10 + a_0 \pmod{8}.$$

Shuning uchun, $a \equiv \overline{a_2 a_1 a_0} \pmod{8}$ bo'ladi. Shunday qilib, a soni 8 ga bo'linadi faqat va faqat shu holdaki, agarda $\overline{a_2 a_1 a_0}$ son 8 ga bo'linsa.

Shunga o'xshash, quyidagi bo'linish alomatlarini isbotlash mumkin.

7^o. 9 ga bo'linish alomati.

Teorema 9. Natural a soni 9 ga bo'linadi, agarda raqamlari yig'indisi 9 ga bo'linadigan sonni tashkil etsa.

8^o. 10 ga bo'linish alomati.

Teorema 10. Natural a soni 10 ga bo'linadi, agarda uning oxiri 0 raqami bilan tugasa.

9^o. 11 ga bo'linish alomati.

Teorema 11. Natural a soni 11 ga bo'linadi, agar toq o'rindagi raqamlar yig'indisi bilan juft o'rindagi raqamlar yig'indisining ayirmasi 11 ga bo'linsa.

Misol 1. 1031305 soni 11 ga bo'linadi.

Haqiqatdan, toq o'rindagi raqamlari yig'indisi $1 + 3 + 3 + 5 = 12$ ga teng, juft o'rindagi raqamlari yig'indisi esa $0 + 1 + 0 = 1$ ga teng. Ularning ayirmasi $12 - 1 = 11 - 11$ ga bo'linadi.

Misol 2. 132582 soni 3 ga bo'linadi, lekin 9 ga bo'linmaydi.

Haqiqatdan, berilgan sonning raqamlari yig'indisi $1 + 3 + 2 + 5 + 8 + 2 = 21$. 21 soni 3 ga bo'linadi, lekin 9 ga bo'linmaydi. Shuning uchun 132582 soni 3 ga bo'linadi, lekin 9 ga bo'linmaydi.

Butun sonlar. Natural sonlar to'plamiga 0 sonini qo'shib, biz $N_0 = \{0, 1, 2, \dots\}$ to'plamini olamiz - bu barcha manfiy bo'lmagan butun sonlar to'plami deb ataladi. N_0 to'plamni natural sonlarga qarama-qarshi bo'lgan barcha sonlarni qo'shish orqali kengaytiramiz. Natijada quyidagi to'plamni hosil qilamiz:

$$\{\dots, -3, -2, -1, 0, 1, 2, 3, \dots\}.$$

Bu to'plam barcha butun sonlar to'plami deb ataladi va Z bilan belgilanadi.

Geometrik nuqtai nazardan butun sonlarni to‘g‘ri chiziqda quyidagicha ifodalash mumkin. Biror l to‘g‘ri chiziqda biz O nuqtani ixtiyoriy tanlaymiz va uni "boshlang‘ich" nuqta deb ataymiz. O nuqtadan l chiziqning o‘ngdagi yo‘nalishini musbat va O nuqtadan l chiziqning chap tomonidagi yo‘nalishni manfiy demiz. O nuqtaning o‘ng tomonida biror A nuqtani ham belgilaymiz va OA kesmani birlik kesma deb ataymiz. To‘g‘ri chiziqdagi butun sonlarni quyidagicha belgilaymiz: musbat n sonni belgilash uchun O nuqtadan n marta musbat yo‘nalishda OA kesmani qo‘yamiz. Hosil bo‘lgan kesmaning o‘ng uchi n soniga to‘g‘ri keladi. $-n$ sonini belgilash uchun O nuqtadan manfiy yo‘nalishda OA kesmani n marta qo‘yamiz. Hosil bo‘lgan kesmaning chap uchi $-n$ soniga to‘g‘ri keladi. 0 sonini O nuqta bilan mos qo‘yamiz. Natijada barcha butun sonlar belgilangan to‘g‘ri chiziqni hosil qilamiz.



Boshlang‘ich nuqtasi, musbat yo‘nalish va birlik kesmalar tanlangan chiziq sonlar o‘qi deyiladi.

Ratsional sonlar. $\frac{p}{q}$, p - butun son, q - natural son, qisqarmaydigan kasr ko‘rinishda ifodalanishi mumkin bo‘lgan sonlarga ratsional sonlar deyiladi. Musbat ratsional son $\frac{m}{n}$, m va n - natural sonlar, sonlar o‘qida C nuqta bilan ifodalanishi mumkin, uni quyidagicha hosil qilamiz: OA kesmani n ta teng qismlarga bo‘lamiz, so‘ngra sonlar o‘qining musbat yo‘nalishida O nuqtadan m ta shunday qismlarni ajratamiz. Oxirgi kesmaning o‘ng uchi $\frac{m}{n}$ soniga to‘g‘ri keladi. Xuddi shunday, $-\frac{m}{n}$ manfiy ratsional sonni tasvirlash mumkin, O nuqtadan m marta chapga uzunligi $\frac{1}{n}$ bo‘lgan kesmani qo‘yish kerak.

Shunday qilib, sonlar o‘qidagi har bir ratsional soniga yagona nuqta mos kelar ekan.

$\frac{a}{b}$ va $\frac{c}{d}$ ratsional sonlari teng hisoblanadi, agarda $a \cdot d = b \cdot c$ bo‘lsa.

Haqiqatdan, agar $a \cdot d = b \cdot c$ bo‘lsa, u holda $\frac{a}{b} = \frac{a \cdot d}{b \cdot d} = \frac{b \cdot c}{b \cdot d} = \frac{c}{d}$ bo‘ladi.

Ratsional sonlar to‘plamida qo‘shish, ko‘paytirish, ayirish va bo‘lish (nolga bo‘lishdan tashqari) amallarini bajarish mumkin. Ushbu amallar qanday aniqlanishini eslatamiz:

1. $\frac{m}{n}$ va $\frac{k}{l}$ ratsional sonlar yig‘indisi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\frac{m}{n} + \frac{k}{l} = \frac{m \cdot l + n \cdot k}{n \cdot l},$$

2. $\frac{m}{n}$ va $\frac{k}{l}$ ratsional sonlar ko‘paytmasi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\frac{m}{n} \cdot \frac{k}{l} = \frac{m \cdot k}{n \cdot l}.$$

Misol 3. $\frac{3}{4} + \frac{4}{3} = \frac{3+4}{12} = \frac{7}{12}.$

Misol 4. $\frac{3}{4} \cdot \frac{5}{6} = \frac{3 \cdot 5}{4 \cdot 6} = \frac{15}{24} = \frac{5}{8}.$

Qo‘shish va ko‘paytirish amallari quyidagi xossalarga ega:

1. $\frac{m}{n} + \frac{k}{l} = \frac{k}{l} + \frac{m}{n}$ - qo‘shishning kommutativlik qonuni.

2. $(\frac{m}{n} + \frac{k}{l}) + \frac{p}{q} = \frac{m}{n} + (\frac{k}{l} + \frac{p}{q})$ - qo‘shishning assotsiativlik qonuni.

3. $\frac{m}{n} \cdot \frac{k}{l} = \frac{k}{l} \cdot \frac{m}{n}$ - ko‘paytirishning kommutativlik qonuni..

4. $(\frac{m}{n} \cdot \frac{k}{l}) \cdot \frac{p}{q} = \frac{m}{n} \cdot (\frac{k}{l} \cdot \frac{p}{q})$ - ko‘paytirishning assotsiativlik qonuni.

5. $(\frac{m}{n} + \frac{k}{l}) \cdot \frac{p}{q} = \frac{m}{n} \cdot \frac{p}{q} + \frac{k}{l} \cdot \frac{p}{q}$ - qo‘shishga nisbatan ko‘paytirishning distributivlik qonuni.

Ratsional sonlarni ayirish amali quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\frac{m}{n} - \frac{k}{l} = \frac{m \cdot l - n \cdot k}{n \cdot l}.$$

$\frac{m}{n}$ ratsional sonini $\frac{k}{l}$ ratsional soniga bo‘lish amali quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{m}{n} : \frac{k}{l} = \frac{m \cdot l}{n \cdot k}, \text{ bu yerda } k \neq 0.$$

Misol 5. $\frac{7}{5} - \frac{5}{7} = \frac{14-5}{35} = \frac{9}{35}.$

Misol 6. $\frac{7}{11} : \frac{15}{23} = \frac{7 \cdot 23}{11 \cdot 15} = \frac{161}{165}.$

O‘nli kasrlar. $\frac{p}{q}$, $q \neq 0$ ko‘rinishdagi har qanday kasr, bu yerda p va q butun sonlar, oddiy kasr deyiladi. $\pm a_0, a_1 a_2 a_3 \dots$ ko‘rinishdagi har qanday son o‘nli kasr deyiladi, bu yerda $a_0, a_1, a_2, a_3, \dots$ - qandaydir raqamlar. Agar o‘nli kasr yozuvida chekli sonli raqamlar ishtirok etsa, masalan, 2,3454, u holda u chekli o‘nli kasr deyiladi.

Aks holda, o‘nli kasr cheksiz deyiladi. O‘nli kasr yozuvida verguldan keyin ma‘lum bir raqam yoki raqamlar guruhi cheksiz ko‘p marta takrorlanadigan o‘nli kasr

cheksiz davriy o'nli kasr deyiladi. Bunda, takrorlanuvchi raqam yoki raqamlar guruhi cheksiz davriy o'nli kasrning davri deb ataladi. Agar cheksiz o'nli kasr yozuvda takrorlanuvchi raqam yoki raqamlar guruhi bo'lmasa, bunday o'nli kasr cheksiz davriy bo'lmagan o'nli kasr deyiladi.

$\frac{p}{q}$ ratsional sonini o'nli kasr ko'rinishiga keltirish uchun kasrning suratini uning maxrajiga bo'lish kerak. Natijada biz chekli yoki cheksiz o'nli kasrni hosil qilamiz.

Misol 7. $\frac{5}{8}$ sonini o'nli kasr ko'rinishiga keltiring.

Misol 8. $\frac{5}{7}$ va $\frac{17}{22}$ sonlarini o'nli kasr ko'rinishiga keltiring.

Quyidagi ifodalarni hosil qilamiz:

$$\frac{5}{8} = 0,625 = 0,625000 \dots$$

$$\frac{5}{7} = 0,714285714285 \dots$$

$$\frac{17}{22} = 0,77272 \dots$$

7-misolda biz chekli o'nli kasrni hosil qildik. Belgilab o'tamizki, uni davri 0 ga teng bo'lgan cheksiz davriy o'nli kasr sifatida ham qarash mumkin. 8-misolda davri mos ravishda 714285 va 72 larga teng cheksiz davriy o'nli kasrlarni hosil qildik.

Agar davri verguldan so'ng birdan boshlansa (masalan $0,714285714285 \dots$), u holda uni sof davriy kasr deb ataymiz. Aks holda (masalan, $0,77272 \dots$), aralash davriy kasr deb ataymiz.

Teorema 12. $\frac{p}{q}$ - musbat q maxrajli qisqarmas kasr bo'lsin. q ning kanonik yoyilmasi faqat 2 va 5 sonlarning darajalaridan iborat bo'lsin, ya'ni $q = 2^s \cdot 5^t$, bu yerda $s, t \in \mathbb{N}_0$. U holda $\frac{p}{q}$ ni chekli o'nli kasr ko'rinishda tasvirlash mumkin.

Isbot. Haqiqatdan,

$$\frac{p}{q} = \frac{p}{2^s \cdot 5^t} = \frac{p \cdot 2^t \cdot 5^s}{2^{s+t} \cdot 5^{t+s}} = \frac{p \cdot 2^t \cdot 5^s}{10^{s+t}} \text{ chekli o'nli kasr.}$$

Butun p sonni q natural soniga bo'lishda har bir bo'linish bosqichi o'zining qoldig'iga keltiriladi. Bu qoldiqlar qanchalik turlicha bo'lmasin, ularning hech biri q dan katta bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun, ma'lum bir qadamdan so'ng, qoldiqlar takrorlana boshlaydi va bu bo'linmaning davriyligiga olib keladi. Shuning uchun, q ga bo'lishda, davriy o'nli kasrni hosil qilamiz. Shunday qilib, har qanday $\frac{p}{q}$ ratsional son cheksiz davriy o'nli kasr sifatida ifodalanishi mumkin.

Teskari tasdiq ham o‘rinli: har qanday davriy o‘nli kasr oddiy kasr sifatida ifodalanishi mumkin, boshqacha aytganda, har qanday davriy o‘nli kasr ratsional sonidir.

Misol 9. $0,231231\dots$ davriy o‘nli kasrni oddiy kasr ko‘rinishida tasvirlang.

Yechish. Berilgan davriy o‘nli kasrni x orqali belgilaylik, ya’ni

$$x = 0,231231\dots \quad (5)$$

Bu son 231 ga teng davrga ega. (5) ning ikkala tomonini 1000 ga ko‘paytirib, quyidagini hosil qilamiz

$$1000x = 231,231231\dots \quad (6)$$

(6) va (5) tengliklarni hadma-had ayirib, quyidagini hosil qilamiz

$$999x = 231.$$

Bundan esa $x = \frac{231}{999}$ ga ega bo‘lamiz.

Misol 10. $3,73232\dots$ aralash davriy kasrni oddiy kasrga keltiring.

Yechish. $x = 3,73232\dots$ bo‘lsin. U holda

$$10x = 37,3232\dots \quad (7)$$

$$1000x = 3732,3232\dots \quad (8)$$

(8) dan (7) tenglikni ayirib, $990x = 3695$ ni hosil qilamiz. Bundan

$$x = \frac{3695}{990} = 3\frac{725}{990}.$$

Davriy o‘nli kasrlarni oddiy kasrlarga keltirishning boshqa usullari ham mavjud.

Misol 11. $12,73535\dots$ vni oddiy kasrga keltiring.

Yechish.

$$12,73535\dots = \frac{127,3535\dots}{10} = \frac{127+0,3535\dots}{10} = \frac{127+\frac{35}{99}}{10} = \frac{127\cdot 99+35}{990} = \frac{12608}{990}.$$


Irratsional sonlar. Oldingi bo‘limda biz har bir ratsional son sonlar o‘qidagi bitta nuqtaga mos kelishini ko‘rsatdik. Teskari masala qiziq, ya’ni: sonlar o‘qining har bir nuqtasiga ma’lum bir ratsional son mos keladimi? Ma’lum bo‘lishicha, sonlar o‘qida ratsional sonlarga mos kelmaydigan nuqtalar ham mavjud.

Teorema 13. *p - tub son bo‘lsin. U holda kvadrati p ga teng bo‘lgan ratsional son mavjud emas.*

Faraz qilaylik, $\frac{m^2}{n^2} = p$, $EKUB(m, n) = 1$ bo‘ladigan $\frac{m}{n}$ ratsional soni mavjud bo‘lsin. U holda $m^2 = p \cdot n^2$ bo‘ladi. Demak, $m^2 : p$. Bundan $m : p$ ni hosil qilamiz. Demak, $m = p \cdot q$ va $p \cdot n^2 = p^2 \cdot q^2$ bo‘ladigan q butun soni mavjud. Hosil bo‘lgan tenglikning ikkala tomonini p ga qisqartirib, $n^2 = p \cdot q^2$ ni hosil qilamiz. U holda $n^2 : p$ bo‘ladi, ya’ni $n : p$. Shunday qilib, $p - m$ va n sonlarning umumiy bo‘luvchisi ekan. Bu esa $EKUB(m, n) = 1$ shartiga ziddir.

Xulosa. \sqrt{p} ko‘rinishidagi sonlar, bu yerda p – tub son, ratsional son hisoblanmaydi.

Tub sonlar to‘plami cheksizdir. Shuning uchun \sqrt{p} ko‘rinishdagi ratsional bo‘lmagan cheksiz sonlar to‘plami mavjud. Geometrik jihatdan \sqrt{p} uzunlikdagi kesmalarni quyidagicha ifodalash mumkin. Tekslilikda katetlari uzunligi 1 bo‘lgan teng yonli to‘g‘ri burchakli uchburchak quramiz. Unda bu uchburchak gipotenuzasining uzunligi $\sqrt{2}$ ga teng bo‘ladi. $\sqrt{2}$ soni ratsional son emas. Endi katetlari uzunligi $\sqrt{2}$ va 1 bo‘lgan to‘g‘ri burchakli uchburchak yasaymiz. Bunday uchburchak



gipotenuzasining uzunligi $\sqrt{3}$ ga teng bo‘ladi va $\sqrt{3}$ hokazo. Shunday qilib, har qanday p tub son uchun uzunligi \sqrt{p} ga teng bo‘lgan kesmani qurish mumkin ekan.


Yuqoridagi mulohazalarga ko‘ra, ratsional sonlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularni davriy o‘nli kasrlar sifatida ifodalash mumkin. Sonlar o‘qidagi ratsional sonning tasviri bo‘lmagan nuqtalarga irratsional sonlar deb ataladigan cheksiz davriy bo‘lmagan o‘nli kasrlar mos keladi. Masalan, cheksiz davriy bo‘lmagan o‘nli kasrlar: $\sqrt{2} = 1,4142. \dots$, $\pi = 3,1415. \dots$ – irratsional sonlar hisoblanadi.

Barcha ratsional va irratsional sonlar to‘plami, ta’rifiga ko‘ra, haqiqiy sonlar to‘plamini tashkil qiladi. Shunday qilib, barcha haqiqiy sonlar to‘plami barcha davriy o‘nli kasrlardan va barcha cheksiz davriy bo‘lmagan o‘nli kasrlardan iborat ekan.

Irratsional sonlarni taqqoslash. π soni.

Agar AB kesma CD kesmani butun songa teng marta qoplasa AB kesma CD kesmaning o‘lchovi deb ataladi. AB kesma CD va EF kesmalari uchun umumiy o‘lchov deb ataladi, agar AB ikkala kesma uchun ham o‘lchov bo‘lsa.

Misol 12. Rasmda CD va EF kesmalari uchun umumiy o‘lchov hisoblanadigan AB kesma tasvirlangan.



12-misolda o‘lchov birligi sifatida AB kesmani olamiz, uning uzunligini $|AB|$ bilan belgilaymiz va 1 ga tenglaymiz. U holda $|CD| = 2$, $|EF| = 3$ bo‘ladi va bu kesmalar uzunliklarining nisbati $\frac{|EF|}{|CD|} = \frac{3}{2}$ ratsional son bilan ifodalanadi.


Umumiy o‘lchovga ega bo‘lgan kesmalarni mutanosib, aks holda nomutanosib deb ataymiz.

CD va EF mutanosib kesmalar va AB kesma ularning o'ldhovi bo'lsin. Faraz qilaylik, AB kesma CD va EF kesmalarida mos ravishda n va m marta yotadi. U holda EF va CD kesmalari uzunliklarining nisbati $\frac{m}{n}$ ratsional son bilan ifodalanadi.


Shuning uchun mutanosib kesmalar uzunliklarining nisbati har doim ratsional sonidir. Ammo barcha kesmalar ham mutanosib hisoblanavermaydi.

Misol 13. Har qanday kvadratning diagonali uning tomoniga mutanosib emas.


Haqiqatdan, aks holda AC va AB kesma uzunliklarining nisbati ratsional son bo'lgan bo'lar edi. Lekin $AC^2 = 2AB^2$ bo'lgani uchun $\frac{|AC|}{|AB|} = \sqrt{2}$ bo'ladi. Ma'lumki $\sqrt{2}$ ratsional son hisoblanmaydi. Shuning uchun AC va AB kesmalar mutanosib emas.




Har bir ratsional son davriy o'ldli kasr bilan ifodalanganligi va 1-banda isbotlangan teoremdan kelib chiqadiki, $\sqrt{2}$ ratsional son emas, demak, $\sqrt{2}$ davriy o'ldli kasr bilan ifodalanmaydi. Misol sifatida $\sqrt{2}$ sonidan foydalanib, biz irratsional sonlarni o'ldli kasrlar sifatida qanday tasvirlashni ko'rsatamiz.

Uzunligi 2 ga teng bo'lgan OB kesmani olamiz: 

$1^2 < 2 < 2^2$ dan $1 < \sqrt{2} < 2$ kelib chiqadi. Demak, $\sqrt{2}$ AB kesmada yotadi. AB kesmani 10 ta teng qismlarga bo'lamiz. U holda quyidagiga ega bo'lamiz:



$1,4^2 < 2 < 1,5^2$ yoki $1,4 < \sqrt{2} < 1,5$ ligini tekshrish qiyin emas. Demak, $\sqrt{2}$ sonini tasvirlovchi nuqta A_1B_1 kesmada yotadi. Xuddi shu tarzda A_1B_1 kesmani teng qismlarga bo'linishini takrorlaymiz va quyidagiga ega bo'lamiz:



Mos kesmalarining bo'linishini davom ettirsak, quyidagi tengsizliklarga ega bo'lamiz:

$$1,41 < \sqrt{2} < 1,42;$$

$$1,414 < \sqrt{2} < 1,415;$$

$$1,4142 < \sqrt{2} < 1,4143;$$

.....

Bu jarayonni cheksiz ko'p marta davom ettirish mumkin, chunki aks holda $\sqrt{2}$ soni ratsional sonlardan biriga to'g'ri kelgan bo'lar edi. $\sqrt{2}$ sonining taxminiy qiymati sifatida kami bilan $1; 1,4; 1,41; 1,414; 1,4142$ va h.o. sonlarini va ortig'i bilan $2; 1,5; 1,42; 1,415; 1,4143$ va h.o. sonlarini olish mumkin. Shunday qilib,

$$\sqrt{2} = 1,4142 \dots$$

Agar Ikki musbat irratsional sonlarning mos keladigan o'nli xonadagi raqamlari bir xil bo'lsa, ular teng deyiladi. Shubhasiz, agar ikkita irratsional son teng bo'lmasa, ularning mos o'rindagi kamida bitta o'nlik xonadagi raqamlari teng emas. Masalan, $1,41\dots$ soni $1,42\dots$ soniga teng emas.

O'zaro teng bo'lmagan α va β irratsional sonlarni ko'rib chiqaylik. Agar bu sonlarning butun qismlari teng bo'lmasa, u holda butun qismi katta bo'lgan son katta bo'ladi. Masalan, $2,41\dots > 1,41\dots$. Agar butun qismlari teng bo'lsa, verguldan keyingi birinchi o'nli raqamlar taqqoslanadi. Kattaroq son verguldan keyingi birinchi o'nli raqami katta bo'lgan sonidir. Agar bu raqamlar ham teng bo'lsa, keyingi o'nli raqamlar taqqoslanadi va hokazo. Masalan,

$$3,7123\dots > 3,7034\dots ; 100,3371\dots > 100,3368\dots$$

Eslatib o'tamiz, sonlar o'qi deb, koordinata boshi O , o'lchov masshtabi hamda yo'nalishi tanlangan ixtiyoriy chiziqqa aytiladi. Ratsional sonlar holatiga o'xshab, har bir haqiqiy songa sonlar o'qidagi biror nuqtani mos qo'yish mumkin.

Agar α biror musbat haqiqiy son bo'lsa, u holda unga O nuqtadan o'ngda α birlik masofada joylashgan A nuqtani, $-\alpha$ soniga esa O koordinata boshidan A nuqtaga nisbatan simmetrik bo'lgan A' nuqtani belgilaymiz.. Masalan, agar $\alpha = 1,4125\dots$ - irratsional son bo'lsa, u holda

$$1 < \alpha < 2 ;$$

$$1,4 < \alpha < 1,5 ;$$

$$1,41 < \alpha < 1,42 \text{ va h.o.}$$

Ko'rinib turibdiki, bu holda A nuqta $1; 1,4 ; 1,41; \dots$ sonlariga mos keladigan nuqtalardan o'ng tomonida va $2; 1,5; 1,42 ; \dots$ sonlariga mos keladigan nuqtalardan chap tomonida yotadi.

Ko'rinib turibdiki, bu shartlar $\alpha = 1,4125 \dots$ haqiqiy (irratsional) son geometrik tasviri sifatida qaraladigan sonlar o'qidagi yagona A nuqtani belgilaydi. Shuning uchun har bir haqiqiy son sonlar o'qidagi bitta nuqtaga, ya'ni uning geometrik tasviriga mos keladi (turli sonlarga sonlar o'qidagi turli nuqtalar mos keladi).

Teskari tasdiq ham o'rinli: sonlar o'qining har bir nuqtasiga qandaydir haqiqiy son mos keladi. Agar bu nuqtani ifodalovchi kesma birlik kesma bilan mutanosib

bo'lsa, u holda bu nuqtaga ratsional son mos keladi. Aks holda, nuqtaga irratsional son mos keladi.

Shuningdek, quyidagini ham ta'kidlab o'tamiz. Ma'lumki, L aylana uzunligining uning d diametriga nisbati diametr uzunligiga bog'liq emas. Bu nisbat o'zgarmas sonidir. Uni π ($\pi = 3,1415926\dots$) bilan belgilaymiz. Bu son cheksiz davriy bo'lmagan o'nli kasr, ya'ni irratsional son ekanligini ko'rsatish mumkin.

Haqiqiy sonlar ustida arifmetik amallar. α, β - haqiqiy sonlar bo'lsin. Agar ikkalasi ham ratsional bo'lsa, ularni qo'shish ratsional sonlarni qo'shish qoidasiga muvofiq amalga oshiriladi. Agar bu sonlardan biri (yoki ikkalasi ham) irratsional bo'lsa, ularning yig'indisi $\alpha + \beta$ bilan belgilanadigan haqiqiy son bo'lib, bu yig'indi usbu sonlarning kami bilan olingan mos kasr qismlarining barcha yig'indilaridan katta va ortig'i bilan olingan mos kasr qismlarining yig'indisidan kichikdir..

Misol 14. $\frac{1}{3} + \sqrt{3}$ yig'indining verguldan keyingi uchinchi raqamigacha aniqlikdagi o'nli taqribiy qiymatini toping.

Yechish. $\frac{1}{3}$ va $\sqrt{3}$ sonlarining o'nli taqribiy qiymatlarini yozamiz:

$$\begin{aligned} 0 < \frac{1}{3} < 1 ; 1 < \sqrt{3} < 2 ; \\ 0,3 < \frac{1}{3} < 0,4 ; 1,7 < \sqrt{3} < 1,8 ; \\ 0,33 < \frac{1}{3} < 0,34 ; 1,73 < \sqrt{3} < 1,74 ; \\ 0,333 < \frac{1}{3} < 0,334 ; 1,732 < \sqrt{3} < 1,733 ; \\ \dots \end{aligned}$$

U holda

$$\begin{aligned} (0 + 1) < \frac{1}{3} + \sqrt{3} < (1 + 2) ; \\ (0,3 + 1,7) < \frac{1}{3} + \sqrt{3} < (0,4 + 1,8) ; \\ (0,33 + 1,73) < \frac{1}{3} + \sqrt{3} < (0,34 + 1,74) ; \\ (0,333 + 1,732) < \frac{1}{3} + \sqrt{3} < (0,334 + 1,733) ; \\ \dots \end{aligned}$$

yoki

$$\begin{aligned} 1 < \frac{1}{3} + \sqrt{3} < 3 ; \\ 2 < \frac{1}{3} + \sqrt{3} < 2,2 ; \\ 2,06 < \frac{1}{3} + \sqrt{3} < 2,08 ; \end{aligned}$$

$$2,065 < \frac{1}{3} + \sqrt{3} < 2,067 ;$$

.....

Haqiqiy sonlarni qo‘shish amali kommutativlik va assotsiativlik qonunlarini qanoatlantiradi:

1⁰ . Agar α, β - haqiqiy sonlar bo‘lsa, u holda $\alpha + \beta = \beta + \alpha$;

2⁰ . Agar α, β, γ - haqiqiy sonlar bo‘lsa, u holda $(\alpha + \beta) + \gamma = \alpha + (\beta + \gamma)$.

α, β haqiqiy sonlar ayirmasi deb shunday γ haqiqiy soniga aytiladiki, $\beta + \gamma = \alpha$ bo‘ladi. Boshqacha aytganda, α va β ikki sonning ayirmasi $\alpha + (-\beta)$ ko‘rinishdagi yig‘indiga teng bo‘lib, u $\alpha - \beta$ bilan belgilanadi.

Misol 15. $\alpha = \sqrt{3}, \beta = \frac{1}{3}$ bo‘lsin. $\sqrt{3}$ va $-\frac{1}{3}$ sonlarining o‘nli taqribiy qiymatlaridan foydalanamiz. U holda

$$\begin{aligned} -1 < -\frac{1}{3} < 0 ; 1 < \sqrt{3} < 2 ; \\ -0,4 < -\frac{1}{3} < -0,3 ; 1,7 < \sqrt{3} < 1,8 ; \\ -0,34 < -\frac{1}{3} < -0,33 ; 1,73 < \sqrt{3} < 1,74 ; \\ -0,334 < -\frac{1}{3} < -0,333 ; 1,732 < \sqrt{3} < 1,733 ; \end{aligned}$$

.....

Mos tengsizliklarni hadma-had qo‘shib, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\begin{aligned} 0 < \sqrt{3} - \frac{1}{3} < 2 ; \\ 1,3 < \sqrt{3} - \frac{1}{3} < 1,5 ; \\ 1,39 < \sqrt{3} - \frac{1}{3} < 1,41 ; \\ 1,398 < \sqrt{3} - \frac{1}{3} < 1,400 ; \end{aligned}$$

.....

α, β - haqiqiy sonlar bo‘lsin. Agar ikkala son ham ratsional bo‘lsa, unda ularning ko‘paytmasi ratsional sonlarni ko‘paytirish qoidalari bilan aniqlanadi.

α va β musbat haqiqiy sonlar bo‘lsin va bu sonlardan kamida bittasi irratsional son bo‘lsin. U holda ularning ko‘paytmasi ushbu sonlarning kami bilan olingan mos o‘nli taqribiy qiymatlarining barcha ko‘paytmalaridan katta va ortig‘i bilan olingan mos o‘nli taqribiy qiymatlarining barcha ko‘paytmalaridan kichik bo‘lgan haqiqiy son sifatida qabul qilinadi.

Misol 16. $\alpha = \sqrt{3}, \beta = \frac{1}{3}$ berilgan bo‘lsin. $\sqrt{3} \cdot \frac{1}{3}$ haqiqiy son quyidagi tengsizliklarni qanoatlantirishini tekshirish qiyin emas:

$$0 \cdot 1 < \sqrt{3} \cdot \frac{1}{3} < 1 \cdot 2 ;$$

$$0,3 \cdot 1,7 < \sqrt{3} \cdot \frac{1}{3} < 0,4 \cdot 1,8 ;$$

$$0,33 \cdot 1,73 < \sqrt{3} \cdot \frac{1}{3} < 0,34 \cdot 1,74 ;$$

$$0,333 \cdot 1,732 < \sqrt{3} \cdot \frac{1}{3} < 0,334 \cdot 1,733 ;$$

.....

yoki

$$0 < \frac{\sqrt{3}}{3} < 2 ;$$

$$0,51 < \frac{\sqrt{3}}{3} < 0,72 ;$$

$$0,5709 < \frac{\sqrt{3}}{3} < 0,5916 ;$$

$$0,576756 < \frac{\sqrt{3}}{3} < 0,578822 ;$$

.....

Agar α yoki β haqiqiy sonlardan kamida bittasi nolga teng bo'lsa, u holda $\alpha \cdot \beta = 0$ bo'ladi. Agar bu sonlardan biri, masalan, $\alpha < 0$ bo'lsa, u holda $-\alpha > 0$ bo'ladi va $\alpha \cdot \beta$ - ko'paytma yuqoridagi kabi aniqlanadi. U holda

$$\alpha \cdot \beta = - (-\alpha \cdot \beta) .$$

Agar α va β haqiqiy sonlarning ikkalasi ham manfiy bo'lsa, u holda $\alpha \cdot \beta$ ko'paytma $-\alpha$ va $-\beta$ musbat sonlarning ko'paytmasi kabi aniqlanadi, ya'ni

$$\alpha \cdot \beta = (-\alpha) \cdot (-\beta) .$$

Haqiqiy sonlar ko'paytmasi amali kommutativlik va assotsiativlik qonunlarini ham qanoatlantiradi:

$$1^0 . \text{ Agar } \alpha , \beta - \text{ haqiqiy sonlar bo'lsa, u holda } \alpha \cdot \beta = \beta \cdot \alpha ;$$

$$2^0 . \text{ Agar } \alpha , \beta , \gamma - \text{ haqiqiy sonlar bo'lsa, u holda } (\alpha \cdot \beta) \cdot \gamma = \alpha \cdot (\beta \cdot \gamma) .$$

Bundan tashqari, haqiqiy sonlar ko'paytmasining qo'shish amaliga nisbatan ditributivlik qonunini ham qanoatlantiradi:

$$3^0 . \text{ Agar } \alpha , \beta , \gamma - \text{ haqiqiy sonlar bo'lsa, u holda } \alpha \cdot (\beta + \gamma) = \alpha \cdot \beta + \alpha \cdot \gamma .$$

α va β sonlari o‘zaro teskari sonlar deyiladi, agar $\alpha \cdot \beta = 1$ bo‘lsa, β soniga teskari sonni $\frac{1}{\beta}$ bilan belgilaymiz. α haqiqiy sonni β , $\beta \neq 0$ haqiqiy songa bo‘lishdan hosil bo‘lgan $\alpha : \beta$ bo‘linmani, $\beta \cdot \gamma = \alpha$ tenglikni qanoatlantiradigan, γ haqiqiy son deb ataymiz. Boshqacha qilib aytganda, α ni β ga bo‘lishdan hosil bo‘lgan bo‘linma - bu α va $\frac{1}{\beta}$ sonlarining ko‘paytmasidir.

Misol 18. $\alpha = \sqrt{2}$ va $\beta = \sqrt{5}$ berilgan bo‘lsin. U holda

$$1,4 < \alpha < 1,5 ; 2,2 < \beta < 2,3 ;$$

$$1,41 < \alpha < 1,42 ; 2,23 < \beta < 2,24 ;$$

$$1,414 < \alpha < 1,415 ; 2,236 < \beta < 2,237 ;$$

.....

Bundan

$$\frac{1}{2,3} < \frac{1}{\beta} < \frac{1}{2,2} ; 1,4 \frac{1}{2,3} < \alpha \cdot \frac{1}{\beta} < 1,5 \frac{1}{2,2} ;$$

$$\frac{1}{2,24} < \frac{1}{\beta} < \frac{1}{2,23} ; 1,41 \frac{1}{2,24} < \alpha \cdot \frac{1}{\beta} < 1,42 \frac{1}{2,23} ;$$

$$\frac{1}{2,237} < \frac{1}{\beta} < \frac{1}{2,236} ; 1,414 \frac{1}{2,237} < \alpha \cdot \frac{1}{\beta} < 1,415 \frac{1}{2,236} ;$$

.....hosil qilamiz.

Shunday qilib, $0,6320 < \alpha : \beta < 0,6328$.

Son tushunchasining rivojlanishi. Son tushunchasi turli predmetlar bilan ishlashda insonning tabiiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Predmetlar sonini aniqlash uchun ularni hisoblash kerak bo‘lgan. Predmetlarni sanashda natural sonlar deb ataluvchi $1, 2, 3, 4, \dots$ sonlar paydo bo‘ldi. Predmetlarni sanashdan tashqari, ularni o‘lchash ham talab qilinardi. O‘lchov natijalari ko‘pincha kasrlar sifatida ifodalanadi. $\frac{m}{n}$ ($m, n \in \mathbb{N}$) ko‘rinishdagi musbat kasrlar shunday paydo bo‘ldi. Masalan, agar AB kesmani har biri CD birlik kesmaning n - chi qismiga teng bo‘lgan m ta kesmalarga bo‘lish mumkin bo‘lsa, u holda AB kesmaning uzunligi $\frac{m}{n}$ kasr sifatida ifodalanadi. Keyinchalik nazariy xarakterdagi turli ehtiyojlar paydo bo‘la boshladi. Masalan,


ayirish amalini bajara olish uchun nol va manfiy sonlar zarur bo‘lib qoldi (dastlab manfiy sonlar miloddan avvalgi II-asrda Xitoy matematiklarining asarlarida uchraydi).

Matematikaga manfiy sonlar va nol kiritilgach, barcha ratsional sonlar bilan ishlash mumkin bo‘ldi. Har qanday kesmaning uzunligi musbat ratsional son yordamida har qanday aniqlik darajasi bilan ifodalanishi mumkin. Ammo nazariy tadqiqotlarda shunday kesmalar paydo bo‘ldiki, ularning uzunligi ratsional sonlar bilan ifodalanmaydi. Masalan, tomoni l ga teng kvadrat diagonalining uzunligi ratsional son bilan ifodalanmaydi. Shu sababli, ratsional sonlar to‘plamini unga $\sqrt{2}$, $\sqrt{3}$ va h.o. irratsional deb ataladigan yangi sonlarni qo‘shish orqali kengaytirish zarurati paydo bo‘ldi. Barcha ratsional va irratsional sonlar birgalikda haqiqiy sonlar to‘plamini tashkil qiladi.

Agar N - barcha natural sonlar to‘plami, Z - barcha butun sonlar to‘plami, Q - barcha ratsional sonlar to‘plami, J - barcha irratsional sonlar to‘plami, R - barcha haqiqiy sonlar to‘plami bo‘lsa, u holda quyidagi munosabatlar o‘rinli bo‘ladi:

$$N \subset Z \subset Q \subset R \text{ va } J \subset R,$$

Ularni quyidagi diagramma orqali ko‘rsatish mumkin:



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12707192>

SCIENTIFIC ARTICLE ON REACTIVE POWER COMPENSATION ANALYSIS OF DC GENERATORS

Pakhratdinov Asamatdin Djoldasbaevich¹

a_paxratdinov@nkski.uz

Maulenova Zaurexan Axmet qizi¹

mzaurexan@gmail.com

Jaksilikova Aziyza Konisbaevna¹

jaksilikovaaziza22@gmail.com

Nukus Mining Institute¹

ABSTRACT

This paper comprehensively analyzes reactive power compensation in systems incorporating DC generators. While DC generators inherently do not produce reactive power, their integration with AC systems necessitates effective reactive power management. Various compensation methods, including capacitor banks, synchronous condensers, and power electronic converters, are explored to enhance system stability and efficiency. Simulation results and practical implementations are discussed to provide insights into optimal strategies for reactive power compensation.

Introduction

Reactive power is essential for the stability and efficiency of AC power systems, as it helps maintain voltage levels necessary for the operation of inductive loads. DC generators, however, do not produce reactive power. This discrepancy necessitates effective reactive power compensation strategies when integrated with AC systems.

This paper investigates the theoretical and practical aspects of reactive power compensation for DC generators.

Theoretical Background

1 Reactive Power in AC Systems: Reactive power (measured in VARs) is required to maintain the voltage levels across AC networks. It is generated by capacitors and consumed by inductive loads such as motors and transformers.

2 DC Generators and Reactive Power: DC generators produce only real power. Managing reactive power becomes critical to ensure stability and efficiency when DC systems interface with AC systems via inverters or converters.




Figure 1

Methods of Reactive Power Compensation

1 Capacitor Banks: Capacitor banks provide leading reactive power, compensating for the lagging reactive power drawn by inductive loads. They are cost-effective and widely used but have limitations in dynamic response.

2 Synchronous Condensers: Synchronous condensers are synchronous machines that operate without a mechanical load. By adjusting their excitation, they can absorb or generate reactive power, offering dynamic compensation but at higher costs and complexity.

3 Static VAR Compensators (SVC): SVCs use power electronics to provide dynamic reactive power compensation. They offer rapid response to changes in load conditions, enhancing voltage stability and system reliability.

4 Power Electronic Converters: In systems with DC generators connected to AC grids, power electronic converters (e.g., inverters) can be controlled to manage reactive power flow effectively. Advanced control algorithms can optimize compensation, improving overall system performance.

Analysis of Reactive Power Compensation Strategies

Capacitor Banks: Capacitor banks are effective for steady-state reactive power compensation but may struggle with rapid load variations. Their static nature limits their adaptability in dynamic environments.

Synchronous Condensers: Synchronous condensers offer more flexibility than capacitor banks. Their ability to dynamically adjust reactive power output makes them suitable for systems with fluctuating reactive power demands.

Static VAR Compensators: SVCs provide a balanced approach, combining the rapid response of power electronics with the ability to handle significant variations in reactive power. They are particularly effective in systems with frequent load changes.

Power Electronic Converters: Power electronic converters provide the most precise control over reactive power, making them ideal for interfacing DC generators with AC grids. Advanced control strategies can minimize reactive power exchange, enhancing system efficiency.

Case Studies and Practical Implementations

Industrial Applications: Case studies from industrial settings illustrate the implementation of various reactive power compensation strategies. For instance, a manufacturing plant using DC generators for certain processes employs SVCs to maintain voltage stability and reduce energy costs.

Simulation Results: Simulation studies compare the performance of different compensation methods. Results show that power electronic converters offer superior control and adaptability, followed by SVCs and synchronous condensers.

Conclusion

Reactive power compensation is crucial for the effective integration of DC generators into AC systems. Capacitor banks, synchronous condensers, SVCs, and power electronic converters each offer unique advantages and challenges. Selecting the appropriate strategy depends on the specific requirements of the system, including load variability and cost considerations. Future research should focus on advanced control algorithms and hybrid solutions to optimize reactive power management.

Future Work

Further studies should explore the integration of emerging technologies such as grid-forming inverters and machine-learning algorithms for real-time reactive power management in hybrid AC-DC systems. Investigating the economic implications and lifecycle costs of different compensation strategies will also provide valuable insights for decision-makers.

REFERENCES

- Kundur, P. (1994). *Power System Stability and Control*. McGraw-Hill.
- Anderson, P. M., & Fouad, A. A. (2003). *Power System Control and Stability*. Wiley-IEEE Press.
- Hingorani, N. G., & Gyugyi, L. (2000). *Understanding FACTS: Concepts and Technology of Flexible AC Transmission Systems*. Wiley-IEEE Press.
- Mohan, N., Undeland, T. M., & Robbins, W. P. (2003). *Power Electronics: Converters, Applications, and Design*. Wiley.
- Rasulov A. N., Paxratdinov A. D. Modes and technological features of electrolysis consumers of electricity //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 384. – C. 01035.
- Paxratdinov A. D., Abdiramanova Z. U. ELEKTR ENERGIYA SAPASIN ELEKTR ENERGIYA ISIRAPINA TÁSIRIN ÚYRENIW HÁM

- HARAKTERISTIKALAW //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 1 SPECIAL. – С. 233-236.
- Gayipov I. K., Paxratdinov A. D., Kurbanbayev M. A. QUYOSH ELEKTR STANSIYALARIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH: BARQAROR ENERGIYA SARI YO‘L //GOLDEN BRAIN. – 2024. – Т. 2. – №. 4. – С. 201-205.
 - Пахратдинов А. и др. ПРИОРИТЕТНЫЕ ПУТИ КОМПЕНСАЦИИ РЕАКТИВНОЙ МОЩНОСТИ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11277609> //International scientific and practical conference. – 2024. – Т. 1. – №. 2. – С. 278-281.
 - Сапаров Б. и др. ПРИОРИТЕТЫ ШИРОКОГО ПРИМЕНЕНИЯ РОБОТИЗАЦИИ В АВТОМАТИЗАЦИИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11280059> //International scientific and practical conference. – 2024. – Т. 1. – №. 2. – С. 320-323.
 - Пахратдинов А. и др. ИССЛЕДОВАНИЕ И ВНЕДРЕНИЕ ПЛАТЫ МИКРОКОНТРОЛЛЕРА ARDUINO: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11272359> //International scientific and practical conference. – 2024. – Т. 1. – №. 2. – С. 225-231.
 - Rakhmonov, I., Shayumova, Z., Obidov, K., & Paxratdinov, A. (2024, June). Algorithm for creating sketches to form a 3D diagram of an educational simulator in the subject of fundamentals of power supply. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3152, No. 1). AIP Publishing.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12707208>

PLUGGA CHIMQIRQAR O‘RNATIB ISHLATISH AHAMIYATI

S.B.Majitov

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti
o‘qituvchisi

A.Mengliqulov, Sh.To‘xtayev

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti talabalari
sardor.majidov@tiad.uz

***Annotatsiya.** Maqolada chimqirqarsiz pluglar bilan ishlov berishda begona o‘tlar to‘liq yo‘qolmasligi tuproq bilan aralashib ketishi, va pastki qatlamga tushmasligi, tuproq palahsasi yaxshi deformatsiyaga uchramasligini yaxshilashga qaratilgan chimqirqarli plug bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Plug, chimqirqar, deformatsiya, begona o‘tlar, fraksiya, tuproq palahsasi, hujum burchagi, engashish burchak, shudgor, frontal plug, qamrov kenglik.*


Kirish. Plug bilan yerga ishlov berishdan asosiy maqsad tuproq qatlamini ag‘darish hisobiga begona o‘tlarni chuqur ko‘mib yuqotish hisoblanadi. Bundan tashqari, ag‘darilayotgan tuproq palahsa o‘ta murakkab shakldagi plug korpusi sirti bo‘ylab yuqoriga ko‘tarilayotganda uzluksiz deformatsiyalanishi tufayli maydalanadi, yumshatiladi. Begona o‘tlarni yuqotish palahsani ag‘darish darajasiga bog‘liqdir.

Texnologik ish jarayoni. Ag‘darilgan palahsani shudgor tubiga engashish burchagi α ning miqdori, ag‘darish darajasini baholaydigan ko‘rsatgich hisoblanadi. Doimo, palahsani to‘liqroq ag‘darishni amalga oshirishga intilish kerak. Engashish burchagi α qanchalik kichik bo‘lsa, ag‘darish to‘liq bo‘lgan bo‘ladi. Chimqir

oʻrnatilmagan plug agʻdargan palahsaning engashish burchagi 52° dan kichikroq boʻla olmaydi. Toʻgʻri, frontal pluglar palahsani 180° ga aylantirib, uni dastlabki joyiga toʻntarib qoʻyadi, engashish boʻrchagi nol gradus boʻlib, begona oʻtlarni toʻliq yuqotishga erishiladi. Ammo ular keng ishlatilmaydi.

Tuproq palahsasini agʻdarish jarayonini grafik usulda tahlil qilib, uning mohiyatini ochib berish mumkin. Bunday tahlilni osonlashtirish maqsadida palahsa agʻdarilish jarayonida deformatsiyalanmaydi, yaʼni oʻz shaklini va oʻlchamlarini oʻzgartirmaydi deb faraz qilinadi. Shu usulda palahsani agʻdarish jarayonini talabalarga 1-rasmdagi plakat yordamida tushuntiriladi. Sxemada b qamrov kengligiga ega boʻlgan korpus a chuqurlikda erga ishlov berib, ABCD palahsani oʻng tomonga agʻdarmoqda. Dastlab palahsa D qirrasi atrofida aylanib tik $A_1B_1C_1D$ holatiga keladi, keyinchalik palahsa atrofida burilib, uning B qirrasi haydalmagan yer sathida holatini egallab toʻxtashini olimlar aniqlashgan. Agʻdarilgan palahsaning engashish burchagi α miqdori $C_1D_1C_2$ uchburchagidan aniqlanadi:

$$\alpha = \arcsin a/b \quad (1)$$



1-rasm. Chimqirqarsiz ishlayotgan korpus bilan palahsani agʻdarilish sxemasi


Dalada plugni ishlatishda korpus qamrov kengligi b ni oʻzgartirish imkoni yoʻq, ammo haydash chuqurligini a ni oʻzgartirish mumkin. Chuqurroq haydashni xohlab, a koʻpaytirilsa, agʻdarilgan palahsaning A_2C_1 diagonalini tik holatga kelib qolishi

mumkin va korpus ta'siri to'xtagandan so'ng o'zining dastlabki holatiga ya'ni, orqasiga yiqilishi mumkin. Bunday holatda tuproq yumshatiladi, lekin ag'darilmaydi, begona o'tlar uchun qulay sharoit yaratiladi. Bunday vaziyat haydash chuqurligi a korpus qamrov kengligining 79% dan ko'proq bo'lganida, ya'ni chuqurlik $a \geq 0,79b$ o'rnatilganida sodir bo'ladi. Qamrov kengligi ma'lum bo'lgan korpusni hohlagan katta chuqurlikda ishlatib bo'lmaydi deb tushuntiradi.

Aslida fermer ekadigan ekin yahshi rivojlanishi uchun yerni haydash chuqurligi a ni aniqlab, keyin tuproqni sifatli ag'darish uchun korpus qamrov kengligi b qancha bo'lishini aniqlashi lozim: $b \geq 1,27a$. Ya'ni korpus qamrov kengligi b mo'ljallangan haydash chuqurligidan kamida 1,27 baravar katta bo'lishi lozim. Demak, $a=30$ sm tayinlansa, qamrov kengligi $b=1,27 \cdot 30=38$ sm dan kam bo'lmagan korpus tanlash kerak. Ammo, qamrov kengligi 38 sm dan qanchalik katta bo'lsa, shunchalik yaxshi, sababi (1) formula bo'yicha palahsaning shudgor tubiga engashish burchagi kam bo'ladi, ag'darish sifati yaxshi bo'ladi. Chunki a kichik bo'lsa $A_2B_2C_1D_1$ palahsasi ilgari ag'darilib qo'yilgan $A_3B_3 C_2D_1$ ga jipslangan bo'lib, B_2D_1 yuzasidagi begona o'tlar kafolatli yo'qotiladi. Ammo, B_2 qirradi atrofida namlik hamda yorug'lik yetarli bo'lishi sababli, begona o'tlar ko'karib chiqishi mumkin.

Tuproq palahsasini to'liqroq ag'darish uchun mutahassislar haydash chuqurligi a ga nisbatan korpus qamrov kengligini iloji boricha katta bo'lishini ta'minlash ma'qul bo'ladi deb hisoblashadi, chunki $C_1D_1C_2$ uchburchagidagi a burchagini qarama-qarshisidagi D_1C_2 kateti, ya'ni haydash chuqurligi, o'zgartirilmagan holda uchburchak gipotenuzasi bo'lgan korpus qamrov kengligi $b = C_1C_2$ kattalashtirilsa, palahsaning engashish burchagini kamayishi 1-rasmda ko'rinib turibdi. Ammo, korpus qamrov kengligi b qanchalik katta bo'lsa, palahsani kattaroq masofaga irg'itib surish kerak bo'ladi. Demak, irg'itilayotgan palahsaga ko'proq kinetik energiya berish, ko'proq quvvat sarflash kerak bo'ladi. Qamrov kengligi katta bo'lgan korpuslar o'rnatilgan pluglardan ya'ni korpuslar oralig'i katta bo'lgan uzun va og'ir plugdan foydalanish kerak bo'ladi. Ko'proq quvvat sarflanib, shudgorlash tannarxi yuqori ketadi.

Ma'lumki, palahsani to'liqroq ag'darib, begona o'tlarni ko'proq yo'qotish uchun chimqirqardan foydalanish kerak. 1-rasmda 2-rasmdagi palahsa o'lchamlarini o'zgartirmasdan chimqirqar o'rnatib ag'darish sxemasi keltirilgan. Chimqirqar asosiy korpus oldiga o'rnatilishi tufayli bo'lajak ABCD palahsasining BEFK bo'lagini qirqib olib, oldingi korpus tayyorlagan shudgor tubiga B'E'F'K' ko'rinishida tashlaydi. Orqada kelayotgan asosiy korpus AEFKCD shaklidagi palahsani $A_1E_1F_1K_1C_1D_1$ holatiga keltirib, chimqirqar tashlagan B'E'F'K' tuprog'i ustiga ag'daradi. Asosan begona o't ildizlari, urug'lari, poyalari joylashgan BC tomoni ikkiga ajratilib ag'darilgan palahsa ostida C_1K_1 va K_1B_1 ko'rinishida kafolatli chuqur ko'milgan bo'ladi, begona o't yuqotiladi. Chimqirqardan foydalanishda begona o't ko'proq yuqotilishi adabiyotda targ'ib qilingan. Ammo, katta chuqurlikda ham palahsani sifatli ag'darish mumkin bo'lishi yetarli izohlanmagan.



2-rasm. Chimqirqar o'rnatilgan plug bilan tuproq palahsasini ag'darish sxemasi

C_1C_2L uchburchagidagi α_q burchagi qarshisidagi katet asosiy korpus ishlov berayotgan chuqurlik a bilan chimqirqar chuqurligi α_q ning farqi, ya'ni $L = a - \alpha_q$ ekanligi ko'rinib turibdi. Demak, plugga chimqirqar o'rnatilib ishlatilsa, uning asosiy korpusi ag'darayotgan palahsalari to'liqroq ag'dariladi:


$$\alpha_q = \arcsin\left(\frac{a - a_q}{b}\right) \quad (2)$$

bo'ladi.

(2) formuladagi miqdori (1) formuladagi α_q ga nisbatan doimo kichikroq bo'ladi, chunki:

$$\arcsin\left(\frac{a-a_q}{b}\right) < \arcsin\left(\frac{a}{b}\right) \quad (3)$$

Qamrov kengligi $b=35$ sm bo'lgan korpus chimqirqarsiz ishlatilsa, uning bilan 27 sm chuqurlikdagi palahsani 52° bo'ladigandek ag'darib erga ishlov berish mumkin bo'lsa, ushbu korpus oldiga 8 sm chuqurlikda ishlaydigan chimqirqar o'rnatilsa $\alpha=52^\circ$ o'rniga $\alpha_q=28^\circ$ bo'lishiga erishish mumkin. Hatto, ushbu korpus oldiga chimqirqar o'rnatib, 27 sm emas 33 sm, yani joiz bo'lgan chuqurlikdan 6 sm katta bo'lgan chuqurlikda ishlatilsa ham $\alpha_q=41^\circ$, yani 27 sm chuqurlikdagi $\alpha=52^\circ$ dan kichikroq bo'ladi. Chimqirqarsiz $a=27$ sm chuqurlikka ishlov berib $\alpha=41^\circ$ ni ta'minlash uchun qamrov kengligi $b \geq 40$ qo'yilishi kerak.



3-rasm Qamrov kengligi $b=35$ sm bo'lgan korpus bilan 25-33 sm chuqurlikda shudgorlashda ag'darilgan palahsaning engashish burchagini o'zgarishi:

1-chimqirqarsiz; 2-chimqirqar bilan ishlatilganida

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR

1. Shoumarova M. va Abdillaev T. Qishloq xo‘jaligi mashinalaridan /praktikum/darslik/.-Toshkent: “NIFMSH”, 2022, 402 bet.
2. Hamidov A. “Qishloq xo‘jalik mashinalarini loyihalash”. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1991.
3. Shoumarova M. va Abdillaev T. Qishloq xo‘jaligi mashinalari. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik, Uchinchi nashri, T.”O‘qituvchi”.2019. s.-576.
4. Листопад Г. Е. ва бош. Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. М. «Агропромиздат». 1986. с.-887.
5. С. Б .Мажитов, С. С. Бобомуродов КОМБИНАЦИЯЛАШТИРИЛГАН ИШЧИ ҚИСМ БИЛАН ТУПРОҚНИНГ ДЕФОРМАЦИЯЛАНИШИ *Journal of Advanced Research and Stability Volume: 02 Issue: 12 | Dec – 2022*
6. Sardor Majitov, Abdulla Abrayev, TAIRI o‘qituvchilari Tuproqqa sayoz ishlov beradigan diskli va tishli tirmalarning texnologik ish jarayoni tahlili O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi Maxsus son [3]. 2023
7. Исмайлов Халик Шадманович Мажитов Сардор Бойназарович Шодмонов Шахбоз Холик ўғли ПРАВИЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МАРКЕРА СЕЯЛКИ ВО ВРЕМЯ ПОСЕВА Educational Research in Universal Sciences ISSN 2181-3515 VOLUME 2, SPECIAL ISSUE 5 JUNE 2023
8. Sardor Boynazarovich Majitov PLUG CHUQURLATGICHINI TUPROQ STRUKTURASIGA TA’SIRI GOLDEN BRAIN June, 2023
9. S. B. Majitov 1, S. Sh. Abdig‘afforov 2 Kombinatsiyalashtirilgan Ishchi Qismni Tuproqni Ekishga Tayyorlash Mashinalariga Joriy Qilish Vol. 39 (2023): Miasto Przyszłości Impact Factor: 9.2
10. . Majitov, S. ., & Abrayev, A. (2024). O‘G‘ITLARNI TABAQALASHTIRIB SOLISHNING AHAMYATI, OFF-LINE VA ON-LINE REJIMLAR SAMARADORLIGI. Евразийский журнал технологий и инноваций, 2(6), 11–14.

TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	Shirinov, L. T. (2024). MODELING RISK ASSESSMENT BY THE METHOD OF HIERARCHY ANALYSIS WHEN USING CLOUD IT SERVICES TECHNOLOGY. Educational Research in Universal Sciences, 3(5), 4–11. https://doi.org/10.5281/zenodo.12542140
2	Almardanov, S. M. (2024). POLIPROPILEN FIBRO TOLALI BETON TARKIBINI TEMIR-BETON KONSTRUKSIYALI INSHOOTLAR QURILISHIDA QO‘LLASH ORQALI EKSPLUATATSION SAMARADORLIKKA ERISHISH. Educational research in universal sciences, 3(5), 12–17. https://doi.org/10.5281/zenodo.12542207
3	Пахратдинов, А., Мухаммеддинова, У., & Набиева, Н. (2024). АНАЛИЗ КОМПЕНСАЦИИ РЕАКТИВНОЙ МОЩНОСТИ. Educational research in universal sciences, 3(5), 18–23. https://doi.org/10.5281/zenodo.12542234
4	Sultonov, X. G. (2024). YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA SUG'ORILADIGAN QISHLOQ XO'JALIGI YERLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational research in universal sciences, 3(5), 24–28. https://doi.org/10.5281/zenodo.12542280
5	Эшдавлатова, Г. Э., & Рахматуллаева, Д. А. (2024). ИССЛЕДОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ МЕТИЛДИЭТАНОЛАМИНА В ПРОЦЕССЕ ОЧИСТКИ АМИННЫХ ГАЗОВ. Educational research in universal sciences, 3(5), 29–36. https://doi.org/10.5281/zenodo.12542310
6	Хуршидова, М. А. қизи . (2024). БИР ЙИЛДА ИККИ ҲОСИЛ ОЛИШ АСОСИДА КАРТОШКАНИНГ КЎПАЙИШ КОЭФФИЦИЕНТИНИ ОШИРИШ. Educational research in universal sciences, 3(5), 37–41. https://doi.org/10.5281/zenodo.12542354

7

Jumayev, S. N. (2024). XAVFSIZ FILTRLASH VOSITALARINI AYLANIB O'TISH VA BLOKLANGAN SAYTLARGA RUXSATSIZ KIRISH YO'LLARI TAHLILI. Educational research in universal sciences, 3(5), 42–54. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12542394>

8

Komilova, N. K. qizi ., & Turayeva, N. M. (2024). STEAM – DASTURI VA UNING TA'LIMDAGI O'RNI. Educational research in universal sciences, 3(5), 55–58. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12542460>

9

Gayipov, I. K. uli ., Qo'shmanov, E. M. o'gli ., & Amanbaev, N. S. o'g'li . (2024). OCHIQ KANALLARDA SUV SARFINI O'LCHASH USULLARI. Educational research in universal sciences, 3(5), 59–61. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12542498>

10

Kadirov, U. R., & Asliddin, U. F. o'g'li . (2024). THE MAIN FEATURES OF INTELLIGENT TECHNOLOGIES IN DEVELOPING COUNTRY. Educational Research in Universal Sciences, 3(5), 62–66. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12542544>

11

Asqarov, I. R., Mamatqulova, S. A., & Jumanova, B. G. (2024). OREGANO-AS OZIQ-OVQAT QO'SHILMASI TARKIBIDAGI FLAVANOIDLAR MIQDORINI ANIQLASH. Educational research in universal sciences, 3(5), 67–72. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12542593>

12

Akramov, A. P. (2024). ISHLAB CHIQRISH TA'LIM USTALARINI MUHANDISLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. Educational research in universal sciences, 3(5), 73–76. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12542647>

13

Luqmonov, S. S. o'g'li . (2024). DIFFERENCES BETWEEN THE CONCEPTS OF PHYSICAL QUALITY AND PHYSICAL ABILITY. Educational Research in Universal Sciences, 3(5), 77–80. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12542688>

14

Khojimatov, A. N., & Tursunboev, K. (2024). CALCIUM BINDERS: COMPOSITION, TYPES AND APPLICATION. Educational Research in Universal Sciences, 3(5), 81–84. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12603484>

15

Tursunboyev, X. X. o'g'li . (2024). TUT BARGINING KIMYOVIY KOMPONENTLARI, BIOLOGIK VA FOYDALI XUSUSIYATLARI.

Educational research in universal sciences, 3(5), 85–90.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12603507>

16

Акбаров, Ж. М. (2024). ПЕРСПЕКТИВА СОЛНЕЧНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНА. Educational research in universal sciences, 3(5), 91–95.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12643713>

17

Doliyev, O. B. (2024). GRONUOLL CHEGARALANISHLI IKKINCHI TARTIBLI BOSHQARUVLAR UCHUN TUTISH MASALASI. Educational research in universal sciences, 3(5), 96–100.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12657237>

18

Xamidov, N. M., Eshdavlatov, A. E., & Yusupov, F. F. (2024). THEORETICAL JUSTIFICATION OF THE DIMENSIONS OF THE PIECES FORMED BY THE VEGETABLE THREADER PUMP STRAIGHTENER. Educational Research in Universal Sciences, 3(5), 101–104.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12658265>

19

Mustafoyeva, F. M. qizi . (2024). MAPLE DASTURIDA SHARTLI EKSTREMUM MASALALARINI HISOBLASH. Educational research in universal sciences, 3(5), 105–109. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12670833>

20

Юнусов, Ф. Ф. (2024). ОЧИҚ ОҚИМЛАРНИНГ ТАРМОҚЛАНИШ СОҲАСИДАГИ ГИДРОДИНАМИК ПАРАМЕТРЛАР ТАДҚИҚОТИ. Educational research in universal sciences, 3(5), 110–122.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12670848>

21

Davletov, D. E., & Dilshodova, D. Y. qizi . (2024). MARKAZIY PROYEKSIYALASH VA UNING XOSSALARINI O‘QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. Educational research in universal sciences, 3(5), 123–130.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12670867>

22

Sharipova, S. I., & Qadamboyev, H. R. o'g'li . (2024). UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNING FAZOVIY TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISHDA KO'PYOQLAR KESIMLARIGA OID MASALALARDAN FOYDALANISH. Educational research in universal sciences, 3(5), 131–137.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12670937>

23

Norov, A. Q. o'g'li . (2024). NONLINEAR REACTION-DIFFUSION EQUATIONS WITH FREE BOUNDARY CONDITIONS. Educational research in universal sciences, 3(5), 138–142.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12670946>

24

Hamroyeva, Z. Q. (2024). MATEMATIKA-FIZIKA FANIDAN ISSIQLIK TARQALISH TENGLAMASI UCHUN ARALASH MASALALARNI FUR'E USULI BILAN YECHISH. Educational research in universal sciences, 3(5), 143–148. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12670964>

25

Turdiyev, S. R. (2024). YAQINLASHUVCHI KETMA-KETLIKLER GIPERFAZOSI. Educational research in universal sciences, 3(5), 149–153.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12670969>

26

Sadikov, Z. A., & Yigitaliyev, A. (2024). KORXONALARNING ISHCHI XODIMLARINING ISH HAQINI HISOBLASH USULLARI. Educational research in universal sciences, 3(5), 154–159.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12670985>

27

Nurkayev, S. J. (2024). NATURAL SONLAR. ARIFMETIKANING ASOSIY TEOREMASI. BUTUN SONLAR. BO'LUVCHILAR. YEVKLID ALGORITMI. Educational research in universal sciences, 3(5), 160–165.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12673287>

28

Nurkayev, S. J. (2024). SONNING BUTUN VA KASR QISMLARI QATNASHGAN TENGLAMALAR. Educational research in universal sciences, 3(5), 166–169. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12673401>

29

Nurkayev, S. J. (2024). TAQQOSLAMALAR VA ULARNING XOSSALARI. RATSIONAL VA IRRATSIONAL SONLAR. Educational research in universal sciences, 3(5), 170–186. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12673424>

30

Pakhratdinov, A. D., Maulenova, Z. A. qızı ., & Jaksilhkova, A. K. (2024). SCIENTIFIC ARTICLE ON REACTIVE POWER COMPENSATION ANALYSIS OF DC GENERATORS. Educational Research in Universal Sciences, 3(5), 187–191. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12707192>

31

Majitov, S. B., Mengliqulov, A., & To'xtayev, S. (2024). PLUGGA CHIMQIRQAR O'RNATIB ISHLATISH AHAMIYATI. Educational research in universal sciences, 3(5), 192–197. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12707208>